

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETINING  
IXTISOSLASHTIRILGAN FILIALI**

**M.S. Boltayev, I.YU. Fazilov, G.M. Berdimuratova**

**DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASINING UMUMIY MASALALARI  
O’quv qo’llanma**

*5240100-Yurisprudensiya (huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta ’minlash)*

**TOSHKENT – 2020**

Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali Kengashining majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan (2020-yil 15-iyundagi 5-sonli majlis bayoni).

**Davlat va huquq nazariyasining umumiy masalalari:** O'quv qo'llanma // M.S. Boltayev, I.Yu. Fazilov, G.M. Berdimuratova. — T.: Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali, 2020. — 93 b.

**Ma'sul muharrir:** yuridik fanlar doktori I.Yu. Fazilov

**Taqrizchilar:** yuridik fanlar doktori Sh.A. Ganiyev;  
yuridik fanlar doktori B.A. Rajabov

## ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanma Toshkent davlat yuridik universiteti Kengashining 2019 yil 28 iyundagi 10-sonli majlisi bayoni bilan tasdiqlangan «Davlat va huquq nazariyasi» moduli («Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash» mutaxassisligi uchun) bo'yicha o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

O'quv qo'llanmada davlat va huquq nazariyasining tushunchasi, predmeti, metodlari, funksiyalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, davlat va huquqning kelib chiqishi, davlatning tushunchasi, belgilari, mohiyati, tiplari, funksiyalari, shakllari va mexanizmi masalalari zamonaviy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, ushbu mavzularga doir mantiqiy savollar va kazuslar keltirilgan.

Oliy ta'lif muassasalari talabalari, professor-o'qituvchilari va izlanuvchilarga mo'ljallangan.

## KIRISH

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va huquqiy davlat qurish jarayoni ketayotgan hozirgi davrda, davlat va huquq xodisalarini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Bugun jamiyatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar bizni davlat va huquq hodisalariga oid ko'pgina tushuncha va atamalarni qayta idrok etish hamda baholashga majbur etadi. Bu holat davlat va huquq nazariyasi moduli oldiga murakkab muammolarni qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida farmoni<sup>1</sup> bilan qabul qilingan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham aynan mamlakatimizda istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni nazarda tutadi.

Mazkur o'quv qo'llanmada davlat va huquq nazariyasiga doir zamonaviy milliy va xorijiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili asosida quyidagi masalalar atroflicha yoritilgan.

Xususan, davlat va huquq nazariyasining tushunchasi va predmetiga doir masalalar tahlil qilingan. Jumladan, davlat va huquq nazariyasini predmetini davlat va huquqning mohiyati, jamiyat siyosiy tizimida tutgan o'rni va roli, davlatning jamiyat bilan aloqadorligi, ijtimoiy munosabaatlarni huquqiy tartibga solish, ijtimoiy jamoaviy va individual siyosiy-huquqiy ong va madaniyatga doir masalalar tashkil etishi asoslangan.

Ayni paytda ushbu holat davlat va huquq nazariyasi moduli oldiga qator muayyan vazifalarni qo'yadi. Bunda davlat-huquqiy borliqning ilmiy in'ikosi sifatida davlat va huquq nazariyasi moduli bevosita o'zida zamonaviy davlat-huquqiy hodisalarning ob'ektiv holatini, mohiyatini, ularning jamiyat rivojidagi, jumladan, qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlash, jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdagi rolini aks ettirishi lozim.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. Ushbu Farmon "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 8-fevraldagi 28 (6722)-sonida e'lon qilingan.

Shu bilan birga, modul o'zining e'tiborini jamiyatga, xususan yuridik faoliyatdagi mavjud muammolarni hal etishga, nazariyaning amaliyot bilan uzviy bog'liq holda rivojlanishini ta'minlashga hamda bugungi kun talablariga mos yuridik kadrlarni tayyorlashga qaratishi kerak. Bunda modul uzlucksiz rivojlanib borishi bilan birga nafaqat davlat va huquq haqidagi eng yangi yutuqlarni o'ziga singdirishi, balki ijtimoiy voqelikka mos ilmiy-nazariy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishi lozim bo'ladi.

Mazkur o'quv qo'llanma orqali davlat va huquq nazariyasining metodlari, vazifalari va funksiyalari aniqlashtirilgan. Shuningdek, ob'ektivlik, tarixiylik, determinizm, tizimlilik, plyuralizm davlat va huquq nazariyasining asosiy prinsiplari sifatida yoritilgan. Bundan tashqari, davlat va huquq nazariyasining funksiyalari yig'ish, ta'riflash, prognoz qilish funksiyalariga tasniflanishi ilgani surilgan.

Davlat va huquq nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yoritilib, davlat va huquqning kelib chiqishi tahlil qilingan. Jumladan, davlat va huquqning kelib chiqishi bo'yicha diniy, tabiiy huquq, patriarxal, shartnomalik, sinfiy organik, biologik, psixologik, irrigatsion, iqtisodiy, jinsiy, sport, vatanparvarlik nazariyalarining mohiyati batafsil bayon etilgan. Davlatning tushunchasi, mohiyati va belgilari yoritilgan.

Xususan, hudud, aholi, huquq tizimi, suverenitet, siyosiy hokimiyat, soliq tizimi davlatning asosiy belgilari hisoblanishi ilmiy tahlillar asosida yoritilgan. Bundan tashqari, davlatning tiplari, funksiyalari, shakllari va mexanizmiga doir masalalar atroflicha bayon etilgan.

Davlat va huquq to'g'risidagi bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish yurist mutaxassislarning faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, huquq tizimi va huquq sohalarining maqsadi, mazmun-mohiyatini bilish uchun davlat va huquq nazariyasi moduli fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va huquq nazariyasi modul sifatida davlat va huquq to'g'risidagi haqqoniy, umumlashgan bilimlarni to'plash, yangilash va chuqurlashtirishni maqsad qilib qo'yadi. Davlat – huquqiy hodisalarning tarixiy taraqqiyotini belgilaydigan barqaror, muhim aloqalarini anglashga intiladi.

Davlat-huquqiy borliq, siyosiy-huquqiy jarayonlar butun jamiyatning hayotiy faoliyatini belgilaydigan eng murakkab va muhim ijtimoiy sohalarni tashkil etadi. Ularni ilmiy talqin etish, faqat jamiyatning ob'ektiv ehtiyoji bo'lib qolmay, shu bilan birga mashaqqatli mehnatdir.

Bundan tashqari, bugungi axborotlar oqimi shiddat bilan o'sib borayotgan bir sharoitda talabalarda qisqa, lo'nda va modulning asosiy jihatlarini o'zida jamlagan o'quv adabiyotlariga bo'lgan ehtiyojning oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Shu jihatdan olganda, mazkur o'quv qo'llanma Filialda tasdiqlangan o'quv dasturiga va davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tayyorlangan bo'lib, umuman olganda talaba jamiyat hayoti uchun o'ta muhim bo'lgan davlat-huquq hodisalari to'g'risida chuqr bilimlar manbaiga ega bo'ladi.

## **1-§. Davlat va huquq nazariyasi tushunchasi**

*Fan* (arabcha – mahorat, ilm, bilim) deganda, tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini olib beruvchi hamda o’zi erishgan natijalar bilan atrof muhitga ta’sir ko’rsatuvchi bilimlar tizimi tushuniladi<sup>2</sup>.

Ilmiy bilimlar tizimi uch katta guruhgaga bo’linadi: 1) falsafa; 2) tabiiy fanlar; 3) ijtimoiy fanlar. Falsafa – tabiat va jamiyatga xos bo’lgan eng umumiy qonuniyatlarni, materiya va ongning o’zaro bog’liqligini, tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya va h.k.) – tabiatni, ijtimoiy fanlar esa – jamiyatni, uning tashkil topishi va rivojlanishini o’rganadi<sup>3</sup>.

Jamiyat, ijtimoiy munosabatlar – ijtimoiy fanlar, shu jumladan yuridik fanlarning ob’ekti hisoblanadi<sup>4</sup>. Har bir ijtimoiy fan jamiyatning o’ziga xos tomoni (ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasi)ni o’rganadi. Xususan, yuridik fanlarning ob’ektini davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishi bilan bog’liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Yuridik fanlar (yurisprudentsiya, huquqshunoslik) ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi va quyidagicha tasniflanadi:

1) tarixiy-nazariy yuridik fanlar (davlat va huquq nazariyasi, davlat va huquq tarixi, huquqiy ta’limotlar tarixi va h.k.);

2) sohaviy yuridik fanlar (konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, moliya va bojxona huquqi, tadbirkorlik huquqi, fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessual huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, ijtimoiy ta’minot huquqi, agrar huquq, ekologik huquq, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi, jinoyat-ijroiya huquqi, tezkor-qidiruv huquq va h.k.);

3) sohalararo yuridik fanlar (kriminalistika, kriminologiya, sud ekspertizasi, sud buxgalteriyasi, sud psixiatriyasi va h.k.);

---

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Ф ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>3</sup> Теория государства и права / В.Н.Бибило. — Минск: Право и экономика, 2015. — С. 5.

<sup>4</sup> Теория государства и права: углубленный курс: Учебник / Л.П.Рассказов. — М.: РИОР: ИНФРА-М, 2015. — С. 7.

4) xalqaro yuridik fanlar (xalqaro ommaviy huquq, xalqaro xususiy huquq).

*Nazariya* (arabcha – ta’limot, qoidalar majmui, umumlashma fikr) tushunchasi orqali quyidagilar ifodalanadi: biror fan sohasini yoki uning biror qismini tashkil etuvchi asosiy g’oyalar, umumlashgan qoidalar majmu; voqeа, hodisa va shu kabilarni tushunish-tushuntirishning umumiyligi prinsiplarini asoslab beruvchi ilmiy qonun-qoidalar majmu; biror narsaga, masalaga bo’lgan umumiyligi va shaxsiy qarash, nuqtai nazar<sup>5</sup>.

«Nazariy ta’limot va kontseptsiya iboralari aynan bir ma’noni anglatadi»<sup>6</sup>.

*Davlat va huquq nazariyasi* – davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishining eng umumiyligi qonuniyatlarini va xususiyatlarini o’rganuvchi fundamental-huquqiy fandir.

Ushbu fan davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishining eng umumiyligi qonuniyatlarini va xususiyatlarini to’g’risidagi fundamental bilimlar tizimini shakllantiradi (mavjud bilimlarni umumlashtiradi, yagona tizimga joylashtiradi va yangi bilimlarni ishlab chiqadi).

«Davlat va huquq nazariyasi umumbashariy xususiyatga ega, uning universal qoidalari, xulosalari va ta’riflari jug’rofiy joylashuvi, milliy mansubligidan qat’i nazar, har qanday davlatga va huquqiy tizimga birdek taalluqlidir»<sup>7</sup>.

Davlat va huquq nazariyasi bugungi qiyofaga erishguncha bir necha asrlik tarixiy davrni bosib o’tgan. Davlat va huquq nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida diniy ta’limotlar, xalq og’zaki ijodi namunalari, mutafakkirlar asarlari va maxsus ilmiy tadqiqotlarda davlat va huquq masalalari bo’yicha ilgari surilgan g’oyalar, fikrlar, qarashlar, nuqtai nazarlar hamda normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan qoidalar muhim rol o’ynagan.

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Н ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://nziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20N.pdf](http://nziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20N.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>6</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 7.

<sup>7</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 3.

Mustaqillik yillarida respublikamizda boshqa fanlar bilan bir qatorda, davlat va huquq nazariyasining rivojlanishi uchun to’la sharoit yaratildi. Davlat va huquq nazariyasi bilan bog’liq muammolar keng qamrovda o’rganila boshlandi.

### **Davlat va huquq nazariyasini tushunchasi**

davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko’rsatishi va rivojlanishining eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlarini o’rganuvchi fundamental-huquqiy fan.

#### **2-§. Davlat va huquq nazariyasining predmeti**

«Har bir fan tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini o’rganadi»<sup>8</sup>. Shunga ko’ra, har bir fan o’ziga xos predmetiga ega. *Fanning predmetini* ushbu fan o’rganadigan ijtimoiy masalalar tashkil etadi. Sodda qilib aytganda, fanning predmeti – u nimani va qaysi nuqtai nazardan o’rganadi, degan savolga javob beradi.

*Davlat va huquq nazariyasining predmetini* quyidagilarga doir masalalar tashkil etadi:

- 1) davlat va huquqning mohiyati, jamiyat siyosiy tizimida tutgan o’rni va roli, shu jumladan davlatning jamiyat bilan aloqalari;
- 2) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish;
- 3) ijtimoiy, jamoaviy (guruhiy) va individual siyosiy-huquqiy ong va madaniyat.

Shu o’rinda davlat va huquq nazariyasi ushbu masalalarni qaysi nuqtai nazardan o’rganadi, degan savolga javob berish zarurati tug’iladi. Chunki, yuqorida keltirilgan masalalarning muayyan jihatlari boshqa fanlar (tarix, falsafa,

<sup>8</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Н.П.Азизов, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. — Б. 6.

siyosatshunoslik, sotsiologiya, jinoyat huquqi va boshq.) tomonidan ham o'rganiladi. Shu bois, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarining barcha jihatlarini emas, balki davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining *eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlarini* o'rganadi.

*Davlat va huquq nazariyasi fanining tizimi* predmetiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, uning tuzilishini aks ettiradi.

Tuzilishiga ko'ra davlat va huquq nazariyasi fani davlat nazariyasi va huquq nazariyasi bo'limlariga ajratiladi.

Fanning *davlat nazariyasi* bo'limida davlatning mohiyati, shakllanishi, tipologiyasi, shakllari, funksiyalari, mexanizmi va hozirgi zamon davlati taraqqiyoti kabi masalalar o'rganiladi.

Fanning *huquq nazariyasi* bo'limida esa, huquqning mohiyati, shakllanishi, prinsiplari, funksiyalari, shakli (manbai), huquq ijodkorligi, huquq normasi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy munosabatlar, huquqiy tizim, huquqiy islohot, huquqiy tartibga solish mexanizmi, huquqiy tartibot, yuridik ixtilof (kolliziya), huquqiy xulq-atvor, huquqbazarlik, yuridik javobgarlik, hozirgi zamon huquqi taraqqiyoti kabi masalalar o'rganiladi.

Davlat va huquq nazariyasi fanining tizimi, har qanday boshqa fanlar tizimi kabi, fan rivojlanib borishi barobarida uning predmetidan chetga chiqmagan holda kengayib boradi.

### **Davlat va huquq nazariyasi predmeti**

- \* davlat va huquqning mohiyati, jamiyat siyosiy tizimida tutgan o'rni va roli, shu jumladan davlatning jamiyat bilan aloqalari;
- \* ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish;
- \* ijtimoiy, jamoaviy (guruhiy) va individual siyosiy-huquqiy ong va madaniyat.

### **3-§. Davlat va huquq nazariyasining metodlari**

*Metod* (yunoncha – *methodos* – tadqiqot usuli, yo’li) deganda, tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli tushuniladi<sup>9</sup>.

F. Bekon metodni fonus chiroqqa qiyoslagan, zero, u olimning «yo’lini» yoritadi, degan edi. Ilmiy izlanishning muvaffaqiyati ko’p jihatdan foydalilaniladigan usullarning samaradorligiga bog’liq. Tadqiqot olib borishning usullari, vositalari, metodlarini doimo takomillashtirib borish yangi bilimlarga erishishning, taraqqiyot qonuniyatlarini ochishning ishonchli garovidir<sup>10</sup>.

*Davlat va huquq nazariyasining metodlari* deganda, davlat va huquq hodisalarining mohiyati, xususiyati va qonuniyatlarini bilish, tadqiq qilishning ilmiy usullari majmui tushuniladi.

Boshqa fanlarning metodlari kabi davlat va huquq nazariyasining metodlari ham eng umumiy, umumiy va maxsus metodlarga bo’linadi.

Davlat va huquq hodisalarini o’rganishda quyidagi *eng umumiy metodlar* qo’llaniladi:

1) *dialektik metod* – jamiyat hayotidagi voqeliklar umumiy aloqadorlikda va doimiy rivojlanish holatida bo’lishini, davlat va huquqning rivojlanishi jamiyatning boshqa sohalari bilan o’zaro bog’liq va aloqadorlikda ekanligini, shuningdek davlat va huquqni o’zaro aloqada, doimiy rivojlanishda, o’zgarishda, bir shakldan ikkinchi shaklga o’tish, mazmunan boyish va takomillashishda ekanligini inobatga olgan holda davlat va huquq masalalarini o’rganish usuli;

2) *metafizika metodi* – davlat va huquqqa insonning xohishidan qat’i nazar mavjud, abadiy va o’zgarmas institutlar sifatida yondoshgan holda<sup>11</sup> davlat va huquq masalalarini o’rganish usuli. Ushbu metodga qotib qolgan fikr yuritish usuli sifatida qaraladi.

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — М. ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>10</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 15-16.

<sup>11</sup> Теория государства и права: углубленный курс: Учебник / Л.П.Рассказов. — М.: РИОР: ИНФРА-М, 2015. — С. 15.

Davlat va huquq hodisalarini o'rganishda quyidagi *umumiylar metodlar* qo'llaniladi:

- 1) *mantiqiy metod* – davlat va huquq masalalarini nazariy, mavhumlashtirilgan tarzda, mantiq qonunlari asosida o'rganish usuli. Ushbu metod qo'llanilganda avvalgi bilim (xulosa) keyingi bilim (xulosa) uchun asos bo'ladi, turli fikrlar mantiqiy tahlil qilinadi, ilgari surilayotgan fikrlar aniq, ziddiyatsiz, ishonarli, asosli va dalillar bilan ifodalangan bo'ladi;
- 2) *tarixiy metod* – davlat va huquq masalalarini tarixiy rivojlanish shart-sharoitlariga bog'lab, xronologik izchillikda, ketma-ketlikda o'rganish usuli. Ushbu metod vositasida davlat va huquq masalalarining vaqt o'lchovida o'zgarish jarayoni, davlat va huquqning tarixan vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlari, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida rivojlanishi, o'zgarishi va shakllanishiga ta'sir etgan omillar aniqlanadi, shu asosda davlat va huquqning bugungi holatiga baho beriladi hamda istiqboldagi rivojlanishi prognoz qilinadi;
- 3) *abstraktsiya metodi* – davlat va huquq masalalarini ularning eng muhim xususiyat va qonuniyatlarini ajratib olish orqali o'rganish usuli;
- 4) *deduktsiya metodi* – davlat va huquq masalalarini umumiylar boshlang'ich xulosalardan mantiqiy izchillik asosida yakuniy xulosaga kelish orqali o'rganish usuli;
- 5) *induktsiya metodi* – davlat va huquq masalalarini xususiy dalillardan ayrim farazlarga o'tish yo'li bilan aqliy xulosa chiqarish orqali o'rganish usuli;
- 6) *analiz metodi* – davlat va huquq masalalarini tarkibiy bo'laklarga bo'lish orqali o'rganish usuli;
- 7) *sintez metodi* – davlat va huquq masalalarining turli elementlarini yagona bir butunga birlashtirish orqali o'rganish usuli;
- 8) *umumlashtirish metodi* – davlat va huquq masalalarining umumiylar belgilarini aniqlash yo'li bilan abstraktlashning yanada yuqori bosqichiga o'tish orqali o'rganish usuli.

Davlat va huquq hodisalarini o'rganishda quyidagi *maxsus metodlar*

qo'llaniladi:

- 1) *sistemali-strukturali metod* – davlat va huquq hodisalariga mustaqil ijtimoiy tizim (sistema) sifatida yondashgan holda, jamiyat hayotidagi hodisalar tizimi va tuzilishi (strukturasi)ni, shuningdek davlat va huquq hodisalarining tarkibiy elementlarini o'rganish usuli;
- 2) *qiyosiy-huquqiy metod* – milliy va xorijiy tajribaga tayangan holda, davlat va huquq masalalarini belgilari, xususiyatlari, qonuniyatlari bo'yicha taqqoslash (solishtirish) orqali o'rganish, ularning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini aniqlab olish usuli;
- 3) *statistik-matematik metod* – huquqni qo'llash amaliyoti va davlat organlari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish orqali davlat va huquq masalalarining belgilari, xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlash va baholash usuli. Bunda raqamli hisob-kitob yuritish asosida ma'lumotlar to'planadi, tahlil qilinadi, baholanadi va mantiqiy-ilmiy xulosa chiqariladi. Ushbu metod vositasida olingan natijalar so'z bilan anglashiladigan har qanday ifodalardan ishonchliroq bo'ladi;
- 4) *kuzatish metodi* – oldindan puxta o'ylanib, tafakkur, ong, ruhiy-hissiy bilimga asoslangan holda, turli shakl va hajmda hamda turli vositalar yordamida olib boriladigan davlat va huquq masalalariga doir ma'lumotlarni yig'ish usuli hisoblanadi. Kuzatishlar davlat va huquq masalalariga doir muayyan xulosani tasdiqlash, to'ldirish, yangilash yoki rad etish maqsadida olib boriladi. Kuzatish ma'lumotlari ob'ektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan ilmiy qimmatga ega. Tadqiqotchi ham hayotiy tajribasiga, ham ilmiy nazariyalarga tayanib kuzatishni olib boradi. Kuzatishning yashirin va ochiq kuzatish turlari farqlanadi;
- 5) *so'rov o'tkazish metodi* – davlat va huquq masalalari bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus savollar (so'rovnama, anketa so'rovnama) asosida respondent (inglizcha – javob beruvchi)larning oshkora yoki anonim tarzda, yozma yoki og'zaki shaklda bildirgan fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini umumlashtirish va tahlil qilish usuli;

6) *suhbat (intervyu) metodi* – davlat va huquq masalalariga doir muayyan holatlar bo'yicha intervyu beruvchining fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini suhbat shaklida o'rganish usuli;

7) *mutaxassis bahosi metodi* – davlat va huquq masalalariga doir muayyan holatlarni baholashda ushbu sohada chuqur bilimga ega mutaxassislarning xulosalarini o'rganish usuli;

8) *jamoatchilik fikrini o'rganish metodi* – davlat va huquq masalalariga doir muayyan holatlar bo'yicha ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalangan holda jamoatchilik fikri va munosabatini aniqlash va tahlil qilish usuli;

9) *hujjatlarni o'rganish metodi* – huquqni qo'llash amaliyotida yuritiladigan hujjatlar (jinoyat ishi, ma'muriy huquqbazarlik ishi materiallari, profilaktik hisob ishi, yig'ma jildlar, hisobotlar, umumlashmalar, arxiv materiallari va h.k.)ni o'rganish orqali davlat va huquq masalalarining belgilari, xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlash va baholash usuli;

10) *kibernetik metod* – davlat va huquq masalalarini o'rganishda zamonaviy texnika vositalari (Internet jahon axborot tarmog'i, kompyuter jamlanmasi, elektron ma'lumotlar bazasi va boshq.) orqali ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish va umumlashtirish usuli;

11) *modellashtirish metodi* – davlat va huquq masalalariga doir muayyan holatlar bo'yicha oqilona (samarali) modelni yaratish va uni joriy etish jarayonlarini modellashtirish usuli;

12) *eksperiment metodi* – davlat va huquq masalalariga oid biror-bir huquqiy institut yoki normalarni amaliyotga to'liq joriy etishdan avval, uni muayyan hududda tajriba o'tkazish yo'li bilan sinab ko'rish usuli. Bunda tajriba natijalari asosida ijobiy baholangan yangi huquqiy institutlar butun tizimga joriy etiladi. Masalan, respublikamizda mahalliy darajadagi ma'muriy hududiy birliklarda (viloyat, shahar, tumanlarda) hokimlik lavozimini joriy etishdan avval 1991-yil mobaynida Toshkent shahar hokimi lavozimi ta'sis etilib, bir yil mobaynida

sinovdan o'tkazilgan. 1992-yilda respublikamizning barcha tuman, shahar va viloyatlarida hokim lavozimi joriy qilingan.

Tadqiqot natijalari sifatli, to'g'ri, ishonarli, ilmiy asoslangan va samaradorligi yuqori bo'lishi uchun amaliyotda yuqorida ta'kidlangan metodlar ko'proq birgalikda qo'llaniladi. Ularning qaysilari va qanchasidan foydalanish tadqiqotning predmeti va maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Chunki, fanda universal metod mavjud emas. Har qaysi metod o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlariga ega. SHuning uchun metodlarni mustahkamlash prinsipiga asoslangan holda to'ldirish va bir-birini nazorat qilish orqali tadqiqot olib borish maqsadga muvofiqdir. Faqat bitta metodga ahamiyat berib, boshqalarini nazardan chetda qoldirish noto'g'ri xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin.

Bir qancha metodlardan foydalanishni bilish va ularni etarli darajada asoslagan holda qo'llash sifatli, har tomonlama to'liq axborot olish imkonini beradi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning assoslantirilganligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu voqelikni tahlil etishda ushbu voqelikka xos bo'lган barcha ma'lumotlarni to'plash shart emas. Eng asosiysi, voqelikni ilmiy bilishning to'g'ri yo'lini topmoq kerak.

Davlat va huquq nazariyasi predmetiga taalluqli masalalarni o'rganishda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi hamda hosil qilinadigan bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish, tasniflash prinsiplari ushbu fanning *metodologiyasini* tashkil etadi.

## Davlat va huquq nazariyasining metodlari

- \* Eng umumiy metodlar: dialektik metod; metafizika metodi.
- \* Umumiy metodlar: mantiqiy metod; tarixiy metod; abstraktsiya metodi; deduktsiya metodi; induktsiya metodi; analiz metodi; sintez metodi; umumlashtirish metodi.
- \* Maxsus metodlar: sistemali-strukturali metod; qiyosiy-huquqiy metod; statistik-matematik metod; kuzatish metodi; so'rov o'tkazish metodi; suhbat (intervyu) metodi; mutaxassis bahosi metodi; jamoatchilik fikrini o'rGANISH metodi; hujjatlarni o'rGANISH metodi; kibernetik metod; modellashtirish metodi; eksperiment metodi.

*Prinsip* (lotincha – principium – asos, negiz, ibtido) deganda, biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida; xulq-atvor, xatti-harakat me'yorlarini belgilaydigan, kishi og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqtai nazar, qarash, maslak tushuniladi<sup>12</sup>.

*Davlat va huquq nazariyasining prinsiplari* deganda, davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining ustuvor va fundamental qoidalari tushuniladi.

Ob'ektivlik, tarixiylik, determinizm, tizimlilik va plyuralizm – davlat va huquq nazariyasining prinsiplari hisoblanadi<sup>13</sup>.

*Ob'ektivlik prinsipi.* Davlat va huquq hodisalarini ob'ektiv voqelikdan kelib

<sup>12</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — П ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>13</sup> Общая теория государства и права: Учебник / Под ред. С.Ю.Наумова, А.С.Мордовца, Т.В.Касаевой. — Саратов: Саратовский социально-экономический институт (филиал) РЭУ им. Г.В.Плеханова, 2018. — С. 10.

chiqib, ilmiy dalillarga tayangan holda, xolislik (yanglish, sub'ektiv fikrdan xolilik) asosida o'rganish zarur.

*Tarixiylik prinsipi.* Davlat va huquq hodisalarining shakllanishi va rivojlanishining bosqichlarini, unga ta'sir ko'rsatgan omillarni hisobga olish lozim.

*Determinizm prinsipi.* Determinizm (lotincha – determinare – aniqlamoq, chegaralamoq, qismlarga ajratmoq) tabiat va jamiyatdagi hamma hodisalarning umumiy ob'ektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog'lanishi haqidagi ta'limotdir<sup>14</sup>. Davlat va huquq hodisalarini tabiat va jamiyatdagi boshqa hodisalar bilan umumiy aloqadorlikda va sababiy bog'lanishda bo'lismeni hisobga olish zarur. Har bir hodisaning sababi va boshqa hodisaga ta'siri mavjud bo'ladi.

*Tizimlilik prinsipi.* Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar o'zaro bog'liq va uzviy aloqada bo'lган hodisalar majmui sifatida yagona tizimni tashkil etadi. Har qanday hodisa, shu jumladan davlat va huquq hodisalari bir vaqtning o'zida mavjud bo'lган boshqa hodisalar tizimida ko'rib chiqiladi.

*Plyuralizm prinsipi.* Plyuralizm (lotincha – pluralis – ko'p uchraydigan, ko'p miqdordagi) – g'oyalar, qarashlar, manfaatlar va shu kabilarning tanlash erkinligiga imkon beruvchi xilma-xilligi, ko'pligidir<sup>15</sup>. Plyuralizm davlat va huquq hodisalarini o'rganishda muayyan g'oyalar va qarashlarning mutlaq haqiqat ekanligini inkor etadi, hurfikrlilikka yo'l ochadi, turli mafkuraviy va nazariy yondoshuvlarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

---

<sup>14</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Д ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20D.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20D.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>15</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — П ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

## Davlat va huquq nazariyasining prinsiplari

- |                         |                        |
|-------------------------|------------------------|
| * Ob'ektivlik prinsipi. | * Tarixiylik prinsipi. |
| * Determinizm prinsipi. | * Tizimlilik prinsipi. |
| * Plyuralizm prinsipi.  |                        |

### **4-§. Davlat va huquq nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

Davlat va huquq nazariyasi yurisprudentsiyaning alifbosi va o'ziga xos qomusi, huquq olamiga kirish kaliti, yuridik fanlar tizimida yetakchi mavqe va nufuzga ega fundamental-huquqiy fan hisoblanadi.

Shu o'rinda, quyidagi tushunchalarning ma'nosini yoritish lozim:

- *yuridik* tushunchasi lotin tilidan (*juridicus*) olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan «sud va sudlovga oid» ma'nosini anglatadi, bugungi kunda «huquqqa, huquqshunoslikka oid», «huquqiy» ma'nosida qo'llaniladi;
- *yurisprudentsiya* tushunchasi lotin tilidan (*jurisprudentia*) olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan «huquqshunoslik» ma'nosini anglatadi;
- *yurist* (lotincha – jurista – huquqshunos) deganda, yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxs tushuniladi<sup>16</sup>.

Davlat va huquq nazariyasi *ijtimoiy fandir*. Chunki, davlat ham, huquq ham ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Yuridik bilimlar davlat va huquq xususida yaratiladi. Bu esa, davlat va huquq nazariyasining *yuridik fan* ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Siyosatni davlat yaratadi. Huquq yordamida siyosat mustahkamlanadi va amalga oshiriladi. Ushbu holatlar fonida davlat va huquq nazariyasi *siyosiy fan*

---

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — ЙО ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Yu.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O%27zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Yu.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

sifatida namoyon bo'ladi.

Eng muhimi, davlat va huquq nazariyasining *fundamental fan* ekanligidir. Mazkur fan yurisprudentsiyaning asosiy tushunchalari va umumiylarini ishlab chiqadi. Ushbu fan yaratadigan ta'riflar, qoidalar, xulosalar, tavsiyalar va prognozlar boshqa yuridik fanlar uchun nazariy-metodologik (tayanch) va kontseptual (rahbariy yo'naltiruvchi) asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat va huquq masalalariga tegishli umumiylar tushuncha va kategoriyalarni bilmay turib, yurisprudentsiyaning biron-bir masalasini, sohaviy yuridik fanlarning mavzularini o'rganib bo'lmaydi. Masalan, «huquq», «huquqbazarlik», «yuridik javobgarlik» degan tushunchalarning ta'rifini anglamay turib, ushbu masalalarini o'rganuvchi maxsus fanlar (ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi va h.k.)ning predmetini o'zlashtirib bo'lmaydi.

Davlat va huquq nazariyasiga oid bilimlarning bebaholigi shundaki, ushbu bilimlar boshqa huquq sohalari rivojlanishida metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat va huquq nazariyasi yuridik fanlar tizimida yetakchi, yo'naltiruvchi, umumlashtiruvchi ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, barcha yuridik fanlarning yutuqlarini uyg'unlashtiradi va ularning o'zaro boyishiga ko'maklashadi.

Qayd etish joizki, inson xulq-atvori yaxlit hodisa bo'lsa-da, odamlar xulq-atvorining u yoki bu jihatlarini mufassalroq o'rganish uchun uni ayrim qismlarga, chunonchi: ijtimoiy, biologik, psixologik, ma'naviy, fiziologik va boshqa qismlarga shartli ravishda ajratadilar. Shu bois, inson xulq-atvorini falsafa, din, sotsiologiya, tibbiyot, pedagogika, psixologiya, yurisprudentsiya va boshqa fanlar o'rganadi. Inson xulq-atvorini o'rganuvchi fanlar qanchalik ko'p bo'lmasin, uni to'liq bilib bo'lmaydi. Amerikalik kriminolog Veron Foks kinoya bilan ta'kidlaganidek, «inson xulq-atvorini biror-bir fan nuqtai nazaridan tushunib yetishga harakat qilish besh nafar ko'rning filni tavsiflashga urinishini eslatadi»<sup>17</sup>.

Shunga ko'ra, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarini o'rganishda boshqa fanlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi, ularning yutuqlari,

---

<sup>17</sup> Фокс В. Введение в криминологию. — М., 1985. — С. 17.

ilmiy xulosa va tavsiyalaridan foydalanadi. Chunki, davlat va huquq masalalari boshqa ijtimoiy fanlar (tarix, falsafa, siyosatshunoslik, iqtisod, sotsiologiya va h.k.), shu jumladan sohaviy yuridik fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Ushbu fanlardan farqli o'laroq, davlat va huquq nazariyasi davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining *eng umumi qonuniyatlari* va *xususiyatlarni* o'rganadi.

Bugungi kunda, ayniqsa, davlat va huquq hodisalarining falsafiy talqini alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shunga ko'ra, yurisprudentsiya va falsafaning aloqadorligi negizida «huquq falsafasi» nomli yangi fan va ilm sohasi shakllanmoqda.

Shuningdek, davlat va huquq hodisalariga sotsiologik yondashish zarurati oshib bormoqda. Natijada yurisprudentsiya va sotsiologiyaning aloqadorligi negizida «huquq sotsiologiyasi», «siyosat sotsiologiyasi», «davlat sotsiologiyasi» nomli yangi fan va ilm sohalari shakllanmoqda.

### **5-§. Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari**

Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq masalalariga doir ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni zamon talablariga hamohang tarzda yaratmog'i juda muhimdir. Chunki, fan ilmiy-nazariy jihatdan boyitib borilmasa, o'z vazifalarini bajara olishga qodir fan sifatida rivojlana olmaydi.

Nazariya amaliyotning ko'zi ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Shu bois, ilmiy qiziquvchanlik ehtiyojini qondirish uchun emas, balki davlat va huquq bilan bog'liq dolzarb masalalarning ilmiy echimiga doir tavsiyalarni ishlab chiqish fan oldida turgan dolzarb masaladir.

Bugungi kunda quyidagilar *davlat va huquq nazariyasining vazifalari* hisoblanadi:

1) davlat va huquqning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining eng umumi qonuniyatlari va xususiyatlari, xususan davlatning jamiyat bilan aloqalari, jamiyat siyosiy tizimida davlat va huquqning roli va o'rni, ijtimoiy

munosabatlarni huquqiy tartibga solish, ijtimoiy, jamoaviy (guruhiy) va individual siyosiy-huquqiy ong va madaniyatga doir masalalar to'g'risidagi fundamental bilimlar tizimini shakllantirish, amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni yaratish;

- 2) davlat va huquqning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berish;
- 3) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;
- 4) ijtimoiy, jamoaviy (guruhiy) va individual siyosiy-huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish.

Davlat va huquq nazariyasi o'z vazifalarini *funksiyalari* orqali amalga oshiradi. Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) *yig'ish funksiyasi* – tadqiqotlar orqali davlat va huquq hodisalari hamda ularning qanday kechayotganligi xususida zarur axborotlar yig'iladi;
- 2) *ta'riflash funksiyasi* – to'plangan ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish, guruhlash va umumlashtirish asosida davlat va huquq hodisalarining mohiyati, xususiyati va qonuniyatları yoritiladi, tushunchalar va nazariy kontseptsiyalar yaratiladi, nazariya va amaliyotni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi;
- 3) *prognоз qilish funksiyasi* – davlat va huquq hodisalaridagi o'zgarishlarni o'rganish asosida ularning kelgusida qay tarzda rivojlanishi mumkinligi oldindan ilmiy bashorat qilinadi.

Yuridik adabiyotlarda davlat va huquq nazariyasi funksiyalarining tasnifi bo'yicha qator yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, davlat va huquq nazariyasining funksiyalari:

- 1) nazariy bilish (evristik), ontologik (tushuntirish), metodologik, amaliy tajriba, mafkuraviy-tarbiyaviy, siyosiy, tashkilotchilik, ilmiy bashorat qilish funksiyalariga (X.T.Odilqoriyev<sup>18</sup>);
- 2) evristik, metodologik, siyosiy, mafkuraviy, tashkilotchilik (amaliy

---

<sup>18</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / X.T.Oдилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 32-34.

tashkilotchilik), prognoz (bashorat qilish) funksiyalariga (Z.M.Islomov<sup>19</sup>);

3) nazariy bilish (evristik), metodologik, siyosiy, g'oyaviy-tarbiyaviy, amaliy tajriba funksiyalariga (N.P.Azizov<sup>20</sup>);

4) ontologik, gnoseologik, evristik, metodologik, siyosiy-boshqaruuvlik, mafkuraviy, prognozlash funksiyalariga (V.N.Bibilo<sup>21</sup>, Sh.Saydullayev<sup>22</sup>);

5) ontologik, gnoseologik, evristik, metodologik, mafkuraviy, prognozlash funksiyalariga (L.P.Rasskazov<sup>23</sup>);

6) ontologik, gnoseologik, evristik, prognoz qilish, metodologik, mafkuraviy, tashkiliy-amaliy funksiyalariga tasniflangan (A.V.Malko<sup>24</sup>).

V.N.Ukrainskiy davlat va huquq nazariyasi funksiyalarini yanada batafsilroq tasniflagan:

1) *gnoseologik funksiya* – jamiyatning davlat-huquqiy hayotidagi hodisalar va jarayonlarni o'rghanish va tushuntirish. Ushbu funksiya yordamida predmet to'g'risida muntazam bilim yaratiladi;

2) *prognoz qilish funsiyasi* – olingan ilmiy bilimlar asosida davlat-huquqiy hodisalarining rivojlanishini ilmiy bashorat qilish. Ushbu funksiyaning amalga oshirilishi rivojlanish muammolarini oldindan bilish hamda jamiyat va davlat uchun jiddiy oqibatlarning oldini olish imkonini beradi;

3) *metodologik funksiya*. Bu funksiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
a) evristik – yangi faraz va nazariyalarning paydo bo'lislini rag'batlantiruvchi ilmiy kashfiyotlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; b) muvofiqlashtirish – barcha yuridik fanlar uchun umumiy bo'lgan metodologiyani ishlab chiqish, uning yordamida predmet har tomonlama o'rganilishini muvofiqlashtirish; v) integratsiya qilish – predmetning yaxlit manzarasini beradigan sohaviy fanlarning umumiy asoslarini

<sup>19</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / З.М.Исломов. — Т.: Адолат, 2007. — Б. 42-45.

<sup>20</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Н.П.Азизов, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. — Б. 11.

<sup>21</sup> Теория государства и права / В.Н.Бибило. — Минск: Право и экономика, 2015. — С. 7-8.

<sup>22</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 13.

<sup>23</sup> Теория государства и права: углубленный курс: Учебник / Л.П.Рассказов. — М.: РИОР: ИНФРА-М, 2015. — С. 12-13.

<sup>24</sup> Теория государства и права: учебник / Н.И.Матузов, А.В.Малько. — М.: Юристъ, 2004. — С. 9.

birlashtirish; г) мантиқиј-хукуқиј – юридик фанларнинг максус далиллар тизимини ишлаб чиқиш;

4) *dunyoqarash funksiyasi* – ѡмият ва шахс дунёоқарашининг муайян турлари (инсонпарварлик, ижтимоий-аксиологик, маданий-тарбиявиј, мактуравиј)ни шакллантирish;

5) *tashkiliy-amaliy funksiya*<sup>25</sup>. А.В.Малко тақидланганидек, ушбу функия давлат-хукуқиј хотини о’згартирish ва ислоҳ қилишда, давлат-хукуқиј қурилишining долзарб муаммolarini hal etish bo’yicha tavsiyalar va takliflarni ишлаб чиқishda, давлат бoshqaruvi va huquqiј tartibga solishni ilmiy ta’minlashda namoyon bo’ladi<sup>26</sup>.

Yuqorida кeltirilgan tasniflarning ijobiј jihatlari bilan bir qatorda, давлат ва huquq nazariyasining vazifalari va funksiyalarini bir-biridan farqlashda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirishini qayd etish joiz.

### Davlat va huquq nazariyasining funksiyalari

- \* yig’ish funksiyasi;
- \* ta’riflash funksiyasi;
- \* prognoz qilish funksiyasi.

## 6-§. Davlat va huquqning kelib chiqishi

Jamiyat давлат ва huquqdan oldin vujudga kelgan. «Davlat va huquq jamiyat ichida yuzaga keladi va rivojlanadi»<sup>27</sup>.

<sup>25</sup> Общая теория государства и права: Учебник / Под ред. С.Ю.Наумова, А.С.Мордовца, Т.В.Касаевой. — Саратов: Саратовский социально-экономический институт (филиал) РЭУ им. Г.В.Плеханова, 2018. — С. 8-9.

<sup>26</sup> Теория государства и права: Учебник / Н.И.Матузов, А.В.Малько. — М.: Юристъ, 2004. — С. 9.

<sup>27</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 19.

*Jamiyat* (arabcha – yig’ilish, uyushma, guruh) deganda, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boyliklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui tushuniladi<sup>28</sup>.

Bugungi kunda jamiyat muayyan davlat asosida kishilarni birlashtiradi.

Barcha jonzotlar biologik, tabiat qonunlari asosida hayot kechiradi. «Jamiyatda, avvalambor, biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar harakatda bo’ladi»<sup>29</sup>. Jamiyat a’zolari tabiiy va biologik qonunlar bilan bir qatorda ongli faoliyatlari natijasida yaratilgan ijtimoiy qoidalarga amal qiladi.

Jamiyat – insonlar o’rtasidagi munosabatlar va hamkorlikning tarixan rivojlanib borayotgan tizimidir. Quyidagilar jamiyatning belgilari hisoblanadi:

- 1) hudud – insonlarning ijtimoiy aloqalari amalga oshiriladigan makon;
- 2) universallik (ko’p qirralilik) – jamiyat barcha ijtimoiy aloqa va munosabatlarni o’z ichiga oladi, shu orqali shaxslarning xilma-xil ehtiyojlarini qondiradi;
- 3) avtonomiya – o’zini-o’zi tartibga solish tufayli mustaqil ravishda mavjud bo’lish qobiliyati, ya’ni jamiyat o’zi yaratgan me’yorlar va qadriyatlar asosida tartibga solinadi va boshqariladi;
- 4) integratsiya – jamiyat har bir yangi avlodni o’ziga bo’ysundirishi, uni ijtimoiy hayotning yagona kontekstiga kiritishi bilan namoyon bo’ladi<sup>30</sup>.

Jamiyat insonlarning oddiy uyushmasi emas. «Jamiyat – bu moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog’liq kishilar o’rtasidagi o’zaro aloqalar va munosabatlarning mahsuli, murakkab ijtimoiy tizimdir. Jamiyatning birinchi tabiiy bo’g’inini tashkil etuvchi institut – bu oiladir. Oila tabiat qonunlariga ko’ra yuzaga keladi va

<sup>28</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Ж ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20J.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20J.pdf)(мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>29</sup> Scott Veitch, Emilius Christodoulidis, Lindsay Farmer. Jurisprudence: Themes and Concepts. Second edition. — London — New York, Routledge, 2012. — P. 283.

<sup>30</sup> Теория государства и права / В.Н.Бибило. — Минск: Право и экономика, 2015. — С. 11.

qon-qarindoshchilik asosida uyushgan kishilardan tashkil topadi. Urug' esa bir nechta oilaning qon-qarindoshchilik asosida birlashishi va mulkni idora qilishi, umumiy, qarindoshchilik qoidalari asosida shakllanadi. Bir necha urug'larning qo'shilishi oqibatida qabila, keyinchalik umumiy til, urf-odat kabi birlik asosida millat kelib chiqqan»<sup>31</sup>.

Jamiyat insoniyat taraqqiyoti muayyan bosqichlari (ibtidoiy (urug'chilik) jamiyat, quldarlik jamiyati, feodal jamiyati, kapitalistik (burjua) jamiyat, sotsialistik jamiyat, kommunistik jamiyat, demokratik jamiyat)ning ifodasidir.

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi «ibtidoiy jamiyat» (urug'chilik jamiyati) deb ataladi. Ibtidoiy jamiyat insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davrni (insonlar to'da-to'da bo'lib yashay boshlagandan to ilk davlatchilik vujudga kelgunga qadar) o'z ichiga olgan.

Ibtidoiy jamiyat (davlatgacha bo'lган davr) taraqqiyotida ikki asosiy bosqich, ya'ni *o'zlashtiruvchi iqtisodiyot* (ovchilik, baliqchilik, terib-termachlash) va *ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot* (dehqonchilik, chorvachilik, metallni qaytash ishlash, sopol buyumlar ishlab chiqarish) davri farqlanadi.

Ibtidoiy jamiyatning asosiy negizi kishilarning qon-qarindoshlik aloqalariga asoslangan, bir qancha oilalarni birlashtirgan urug' jamoasi hisoblangan. Ushbu jamiyatda kishilar o'zaro uyushgan (insonlar azaldan birgalikda, uyushib yashashga moyil bo'lган), odamlarning turmushi va ongi tabiiy jamoatchilikka asoslangan. Davlat mavjud bo'lмаган, insonlar teng ravishda mehnat bilan shug'ullanganlar va umumiy mulkdan ulush olganlar, jamiyatning barcha a'zolari teng huquqli bo'lган, aholi tabaqalarga bo'linmagan, kambag'allik va boylik bo'lмаганилиги sababli odamlar bir-birlariga xayrixoh munosabatda bo'lганлар.

Urug' jamoalarining rivojlanib kengayishi natijasida, o'zida bir necha urug'larni birlashtiruvchi qabilalar, so'ngra esa qabilalar ittifoqi vujudga kelgan. Jumladan, respublikamiz hududida ilk davlatchilik kurtak otayotgan davrda 20 dan

---

<sup>31</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслык / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 19-20.

ortiq qabilalar ittifoqi mavjud bo'lgan<sup>32</sup>. Xususan, Xorazm vohasida 5-6 ming yil oldin o'sha davr uchun o'ta yirik bo'lgan sun'iy sug'orish kanallarining qurilganligi yirik qabilalar ittifoqining vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Qabilalar urug' oqsoqollaridan iborat bo'lgan oqsoqollar kengashi tomonidan, qabilalar ittifoqi esa qabila boshliqlari kengashi tomonidan boshqarilgan.

Urug'chilik tuzumida o'z-o'zini boshqarishning quyidagi tuzilmalari mavjud bo'lgan:

1) *oqsoqollar kengashi* – boshqaruvning asosiy masalalarini va muayyan ziddiyatli holatlarni hal etgan. «Oqsoqol hokimiyati faqat uning jismoniy kuchi, dovyurakligi (dastlabki davrlarda), tajribasi va aql-zakovatiga (keyingi davrlarda) tayangan»<sup>33</sup>;

2) *harbiy boshliqlar* – urug'ning yosh a'zolari o'rtasida harbiy tayyorgarlikni tashqil qilgan hamda urush vaqtlarida ular ustidan qo'mondonlikni amalga oshirgan;

3) *umumiylar (urug')* *yig'in* – urug'ning voyaga etgan barcha ayol va erkak a'zolari teng ravishda ishtirok etgan, dohiylar va harbiy boshliqlar saylangan hamda urug' hayotining eng muhim masalalari hal etilgan, urush va sulh masalalari, ommaviy ko'chish va ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan qarorlar qabul qilingan;

4) *kohinlar* – turli xil diniy rasm-rusumlar va marosimlarni o'tkazish tartiblarini hamda diniy tusdagi qoidalarni shakllantirgan, diniy sudlovnii amalga oshirgan<sup>34</sup>.

Jamiyatni boshqarish, unda barqaror hayot tarzini ta'minlash uchun jamiyat a'zolarining manfaatlarini umumiylar farovonlik yo'lida uyg'unlashtirish talab etiladi. Bunga esa, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarni shakllantirish va ularning bajarilishini ta'minlash orqali erishiladi.

<sup>32</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 39-40.

<sup>33</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 40.

<sup>34</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 25.

Dastlabki ijtimoiy normalar asosan urf-odatlar (taqiq (tabu), axloq, afsona, marosimlar) ko'rinishida bo'lgan va avloddan-avlodga o'tib kelgan. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy normalarga amal qilishi ko'nikmalar va ixtiyoriylik asosida ta'minlangan, normalarni buzgan shaxslarga jamoatchilik ta'siri va boshqa turdag'i jazolar qo'llanilgan (masalan, urug'-qabiladan haydash). Ijtimoiy normalar man etish tavsifi (tabu tizimi)ga ega bo'lgan, keyinchalik jamoa a'zolarining huquq va majburiyatlarini belgilovchi normalar tizimi vujudga kelgan.

Davlat va huquq hodisalari uzoq tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini tushuntiruvchi turlituman nazariyalar mavjud bo'lib, ularning asosiyлари quyidagilardan iborat.

1. *Diniy (teologik) nazariya* (Avreliy Avgustin, Al-Mavardi, Ibn Rushd, Foma Akvinskiy, Ibn Xaldun) mohiyati:

– butun olam, shu jumladan davlat va huquqning kelib chiqishi ham xudoning irodasi bilan bog'liqligi, hukmdor va din vakillari xudoning irodasini ifodalovchilar ekanligi, fuqarolar ularning amriga so'zsiz bo'ysunishi lozimligi tushuntiriladi;

– «ushbu nazariya ta'sirida «ikki qilich» nazariyasi ommalashgan. Unga ko'ra cherkov bitta qilichni o'zida saqlagan bo'lsa, ikkinchi qilichdan foydalanish huquqini hukmdorlarga jamiyatdagi masalalarni hal qilish uchun taqdim etadi. SHu bois Evropa davlatlari monarxlari hokimiyati qonuniy bo'lisi uchun katolik cherkovi boshlig'i Rim papasidan yorliq olishlari lozim bo'lган. SHu bilan diniy tashkilot bo'lган cherkovning dunyoviy davlat ustidan ustunligi ta'minlangan»<sup>35</sup>.

2. *Tabiiy huquq nazariyasi* (Epikur, Polibiy, G.Grotsiy, Seneka, Spinoza, T.Gobbs, J.Lokk, J.Russo, P.Golbax) mohiyati:

– davlat tabiiy taraqqiyot mahsulidir. Insonlar paydo bo'lislari bilan hech qanday qoidaga rioya qilmasdan yashaganlar, ammo keyinchalik o'zlarining xavfsizliklarini ta'minlash, o'zaro birlashib yashash uchun turli xil qoidalarni ishlab chiqishga majbur bo'lishgan;

---

<sup>35</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 28.

- davlat oila va qishloq kabi odamlarning birlamchi uyushmasiga o’xshashdir. Ayol va erkakning o’zlaridan nasl qoldirish uchun birlashishi oilani vujudga keltiradi. Oilalarning ko’payishi qishloqlarni va qishloqlarning kattalashib ketishi davlatni vujudga keltiradi;
- davlatning vujudga kelishi, davlat shakllarining almashishi tabiat qonunlari bo’yicha amalga oshadigan tabiiy jarayon hisoblanadi.

*3. Patriarxal nazariya* (Aristotel, Aflatun, Konfutsiy, Genri Men, Mixaylovskiy, R.Filmer) mohiyati:

- davlat oilaning rivojlanishi asosida vujudga kelgan. Erkak va ayol bir-biriga bo’lgan tabiiy ishtiyoqi, o’zidan nasl qoldirishga bo’lgan ehtiyoji tufayli birlashib oila quradi. Oilalar kengayib qishloqlarni tashkil etadi va qishloqlarning yig’indisi esa davlatning vujudga kelishiga sabab bo’ladi;
- davlat katta oilaga, hukmdor (millat otasi)ning hokimiyati otaning o’z oila a’zolari ustidan hukmronligiga o’xshatiladi. Hukmdor xuddi oila boshlig’i kabi jamiyat a’zolari haqida qayg’urishi, o’z navbatida, oila a’zolari otaga qanday bo’ysungan bo’lsa, davlat boshlig’iga ham shunday sodiq va itoatkor bo’lishi lozimligi tushuntiriladi;
- hokimiyat xudodan olinganligi, keyin uning to’ng’ich o’g’li – patriarchga, undan keyingina o’z avlodlari – qirollarga berilganligi, hukmdor fuqarolar tomonidan tayinlanmasligi, saylanmasligi va taxtdan mahrum etilishi mumkin emasligi, chunki fuqarolarning barchasi hukmdor-otaning farzandlari ekanligi ta’kidlanadi.

*4. Sharhnomalari nazariyasi* (J.Lokk, T.Gobbs, B.Spinoza, A.Radishchev, J.Russo, G.Grotsiy) mohiyati:

- davlat kishilarning ongli faoliyati mahsulidir;
- davlat xalq va hukmdor o’rtasida tuzilgan bitim (ijtimoiy sharhnomalari asosida vujudga kelgan);
- insonlar tabiatdan teng, hokimiyat xalqqa tegishli va uning ajralmas huquqi, hokimiyatning yagona qonuniy manbai xalqning roziligi (ya’ni ijtimoiy

shartnoma)dir, ijtimoiy shartnoma xalq bilan hukmdor o'rtasidagi bitim emas, balki faqat xalqning o'ziga tegishli bo'lган hokimiyatni hukmdorga topshirishidir;

– «ijtimoiy shartnoma nazariyasining ko'pgina g'oyalari demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida o'z ifodasini topgan. Shu ma'noda davlatning asosiy qonuni hisoblanadigan konstitutsiyalarni muayyan darajada ijtimoiy shartnoma deb ta'riflash mumkin. Chunki unda inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari bilan bir qatorda ularning burchlari ko'rsatib o'tiladi. O'z navbatida, davlatning jamiyat va fuqarolarga nisbatan huquq va majburiyatlari ham konstitutsiyalarda mustahkamlanadi»<sup>36</sup>.

5. *Zo'ravonlik nazariyasi* (E.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy) mohiyati:

– davlatning vujudga kelishiga harbiy-siyosiy omillar (bosqinchilik, zo'ravonlik, bir qabilani ikkinchi qabila tomonidan zulmga duchor etilishi) sabab bo'lган;

– davlat bosib olingen hududlar (xalqlar)ni boshqarish, mulki, yeriga egalik qilish, qabila a'zolarini qullarga aylantirish, mag'lub qabilani doimiy ravishda g'olib uchun ishlashga, ularga soliq va yig'im to'lashga majbur qilish uchun zo'rlov apparati vazifasini o'tagan. Misol uchun, german qabilalarida davlatning kelib chiqishida aynan harbiy-siyosiy omillar muhim rol o'ynagan;

– tarix ikki tipdagi irodalar: kuchsizlarning kuchlilarga qarshi kurashidan iborat. Urush insonlarni jamiyat va davlatga birlashishga majbur qiladi. Jamiyatdagi bir sinfnинг ikkinchi sinf tomonidan bo'ysundirilishi natijasida davlat vujudga keladi. Davlat kuchlilarning farovonligini ko'zlab yaratilgan tashkilot sifatida, huquq esa bo'ysundirilgan aholini tutqinlikda saqlab turish vositasi sifatida vujudga kelgan.

6. *Materialistik (sinfiy) nazariya* (K.Marks, F.Engels, V.Lenin) mohiyati:

– davlat iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, bir-biriga qarama-qarshi sinflarning yuzaga kelishi natijasida vujudga kelgan. Davlat iqtisodiy va siyosiy

---

<sup>36</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 30.

jihatdan hukmron bo'lgan tabaqalarning quyi tabaqalarni bostirib turish, ular ustidan o'rnatilgan hokimiyatni saqlab qolish vositasi sifatida tashkil etilgan;

– mehnat taqsimoti, ortiqcha moddiy ne'matlarning vujudga kelishi, uning alohida shaxslar qo'lida to'planishi natijasida xususiy mulk va shu asosda mulkdorlar sinfi paydo bo'lgan. Jamiyat ikki qarama-qarshi sinflarga – boydar va kambag'allarga bo'lingan, boydar o'z hokimiyatlarini o'rnatish, quyi sinfni tutqinlikda tutib turish maqsadida davlatni tashkil etgan.

*7. Organik nazariya* (Aflatun, T.Gobbs, J.J.Russo) mohiyati:

– davlat tirik organizm, jamiyat va davlat o'zaro bog'liq bo'lgan organizmlar yig'indisi, davlat hokimiyati va uning organlari tirik mavjudotning organlari kabi muayyan bir vazifani bajarish uchun yaralgan;

– davlat insonning o'ziga o'xshash bo'lgan «siyosiy tana» deb hisoblanadi. Davlat va inson tanasi o'zaro taqqoslanadi. Insonda bosh va ruh tanani, ruhning o'zida esa ong hissiy tuyg'ularni boshqaradi, davlatda hokimiyatni tashkil etish ham shunga o'xshash, inson ruhining uch asosiga davlat hokimiyatining uch o'xshash asosi – maslahat, muhofaza va tadbirkorlik, ushbu uch asosga esa uch tabaqa – hukmdorlar, askarlar va ishlab chiqaruvchilar mos keladi. Oliy hokimiyat siyosiy tanaga hayot va harakat bag'ishlab, uning sun'iy ruhini tashkil etadi. Sud va ijro organlari, mansabdor shaxslar – bu sun'iy bo'g'inlar, taqdirlash va jazolash vositalari esa asab tolalari bo'lib, ular yordamida har bir bo'g'in va «siyosiy tana» a'zosi oliy hokimiyatga birlashtiriladi va shu orqali majburiyatlarini bajaradi. Jamiyatning har bir a'zosining farovonligi va boyligi davlatning kuch-qudratini, xalqning xavfsizligini ta'minlash – uning mashg'ulotini tashkil etadi. Jamiyat uchun zarur bo'lgan xatti-harakatni amalga oshirishni uqtiruvchi – aqlni,adolat va qonunlar esa – sun'iy ong va irodani tashkil etadi. Davlatning tinchligi – sog'liqni, notinchlik – kasallikni va fuqarolar urushi esa o'limni anglatadi<sup>37</sup>.

*8. Biologik nazariya* (Herbert Spenser) mohiyati:

---

<sup>37</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / X.T.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 57.

– davlat tirik, «tabiiy organizm» sifatida baholanib, «ijtimoiy biologiya shakli» sifatida ko’rib chiqiladi;

– davlat tabiat kuchlarining mahsuli bo’lganligi sababli, uning mohiyatini anatomiya va fiziologiya qonuniyatlari orqali tushuntirish mumkin. Davlat ijtimoiy rivojlanish mahsuli emas, balki tabiat kuchlarining, biologik mavjudotning bir qismidir, uning barcha qismlari ma’lum funksiyalarini bajarishga ixtisoslashgan (masalan, davlat faoliyati inson miyasining funksiyalariga o’xshash). Davlat tabiat kuchlarining mahsuli sifatida inson tanasi singari rivojlanmoqda<sup>38</sup>.

*9. Psixologik nazariya* (G.Tard, F.Gidding, L.Petrajitskiy) mohiyati:

– kishilarning ruhiyati jamiyat, davlat va huquqning rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi;

– jamiyat va davlat insonlarning ruhiy uyushmasi sifatida talqin etiladi;

– davlat hokimiyati biror bir kishining irodasi emas, balki fuqarolarning davlatga bog’liqligi to’g’risidagi ruhiy tasavvurlaridan kelib chiquvchi kuchdir.

*10. Irrigatsion nazariya* (K.Vittfogel) mohiyati:

– sug’orma dehqonchilikning rivojlanishi, yirik irrigatsion tarmoqlarni tashkil etish bo'yicha ommaviy ishlarni yo'lga qo'yilishi, mazkur ishlarga aholini keng miqyosda jalb etilishi va ular ustidan yagona va markazlashgan rahbarlikni amalga oshirilishi natijasida davlat vujudga kelgan. Misol uchun, Osiyodagi dastlabki davlatlar besh ming yillar oldin Nil, Tigr, Hind, Ganga, Yantszi, Evfrat kabi yirik daryolarning havzalarida yuzaga kelgan;

– geografik va iqlim omillari ham davlatning kelib chiqishiga ta’sir o’tkazgan. Shu bois noqulay bo’lgan shart-sharoitlarda qishloq xo’jaligini tashkil etish muammolarini hal etish Sharqdagi ayrim hududlarda davlatning kelib chiqish jarayonini tezlashtirgan.

*11. Iqtisodiy nazariya* (Platon, Sen-Simon) mohiyati:

– davlat ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida kelib chiqqan;

---

<sup>38</sup> Теория государства и права: углубленный курс: Учебник / Л.П.Рассказов. — М.: РИОР: ИНФРА-М, 2015. — С. 23-24.

– davlat tarixiy taraqqiyotning natijasidir, uning asosiy yadrosi iqtisodiy o'zgarishlar hisoblanadi. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar davlatning shakllanishiga olib keladi<sup>39</sup>.

*12. Jinsiy nazariya* (K.Levi-Stross) mohiyati:

– davlatning kelib chiqishida, shuningdek insonni tabiiy dunyodan ajratishda inson zoti ko'payishining o'ziga xos xususiyatlari (intsestni, ya'ni yaqin qon qarindoshlar bilan jinsiy aloqani taqiqlash) dastlabki ijtimoiy omil bo'lgan;

– intsestni taqiqlash (ushbu taqiqqa rioya qilinishini va uni buzganlik uchun jazo choralarini qo'llash) uchun maxsus insonlar guruhi shakllangan. Keyinchalik ushbu guruh boshqa ijtimoiy funksiyalarni ham o'z zimmalariga ola boshlagan.

*13. Sport nazariyasi* (Ortega-I.-Gaset) mohiyati:

– davlatning paydo bo'lishi jismoniy mashqlar, o'yinlar va umuman sportning kelib chiqishi bilan izohlanadi;

– inson ijtimoiy-biologik mavjudot sifatida jismoniy faoliyatga muhtoj, bu uning organlarini rivojlanishiga olib keladi;

– ov va harbiy yurishlarga borishdan oldin bajariladigan ov va harbiy raqslarni, qabilaga yangi a'zolarni qabul qilishda bajariladigan marosimlarni, ibtidoiy jamiyat odamlari turmush tarzi bilan bog'liq bo'lган boshqa jismoniy marosimlar va musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish uchun maxsus insonlar guruhi shakllangan. Keyinchalik ushbu guruh boshqa ijtimoiy funksiyalarni ham o'z zimmalariga ola boshlagan;

– sportning paydo bo'lishi kuchli armiyaning tuzilishiga ko'maklashgan. Xususan, olimpiya o'yinlari yagona YUnion davlatini shakllantirishga yordam bergen. Olimpiya o'yinlarini o'tkazish uchun maxsus idoralar tuzilgan, keyinchalik ushbu idoralar davlat idoralariga aylantirilgan.

*14. Vatanparvarlik nazariyasi* (K.L.Galler) mohiyati:

– davlatning kelib chiqishini yerga egalik qilish orqali izohlaydi;

---

<sup>39</sup> Теория государства и права / В.Н.Бибило. — Минск: Право и экономика, 2015. — С. 22.

– davlat, yer kabi, hukmdorning shaxsiy mulki hisoblanadi; Darhaqiqat, davlatni muayyan hukmdorning mulki deb hisoblash mumkin, chunki u ma'lum bir darajada ushbu mamlakat hududida joylashgan deyarli barcha narsalarga, shu jumladan kuch xususiyatlariga ega bo'lgan davlat apparatlariga egalik qiladi, foydalanadi va tasarruf etadi (ayniqsa, mutloq mustamlakachilik davrida). Bundan tashqari, davlatning shakllanishi davrida uning hududi asosan qabila boshlig'i, harbiy boshliq va boshqa yetakchi bo'lgan makon bilan belgilanadi;

– hukmdorlar «o'ziga xos» mulk huquqi tufayli hududni egallab olishadi. Bunday vaziyatda odamlar egasining yerini ijaraga oluvchilar, amaldorlar esa hokimlarning kotiblari ko'rinishida namoyon bo'ladilar. «Quvvat-mulk» tushunchalari nisbatida ushbu nazariya vakillari mulk huquqiga ustunlik berishadi. Keyinchalik ushbu mulkka egalik davlatning paydo bo'lishini asos qilib olgan hududga egalik qilish bilan bog'liq.

Muxtasar aytganda, davlat va huquqning vujudga kelishi ko'p jihatdan insonlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va ehtiyojlari tizimining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan tabiiy shart-sharoitlar, iqlim, tuproq, suv, hududning suv havzalariga yaqin yoki uzoqligiga bog'liq bo'lgan. Jumladan, Qadimgi Gretsiya, Misr, Rim va boshqa davlatlarda ilk davlat-huquqiy tizimlari jamiyatning qullarga va quzdorlarga bo'linishi negizida vujudga kelgan bo'lsa, O'rta Osiyoda tom ma'noda quzdorchilik tuzumi mavjud bo'lмаган, shu sababli umumiylar yer egaligiga asoslangan davlat va huquq shakllangan.

«Davlat jamiyatni uyushtirish, boshqarish vositasi bo'lsa, huquq ijtimoiy munosabatlarni jamiyat va inson manfaatlaridan kelib chiqib tartibga solish vositasidir. Davlat va huquq o'zaro uzviy hodisalar bo'lganligi bois davlatning mohiyatida va faoliyatida qanday o'zgarishlar ro'y bersa, huquqning mohiyati va tabiatida ham shunday o'zgarishlar ro'y beradi. Bu jamiyat hayotining umumiylar qonuniyatidir»<sup>40</sup>.

Turli tarixiy davrlarda davlatga hukmron sinflarning tashkiloti, huquqqa esa hukmron sinflarning manfaatini himoya qilish vositasi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni zo'ravonlik bilan

<sup>40</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси: Дарслик / X.T. Одилқориев, И.Т. Тультеев ва бошқ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 4-5.

bostirish quroli sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi demokratiya sharoitida davlat ijtimoiy qarama-qarshiliklarni ijtimoiy kelishuv, murosai madora bilan bartaraf etish vositasi, huquqqa esa, ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi, inson uchun farovon hayotni ta'minlash vositasi sifatida yondashilmoqda.

**Davlat va huquqning  
kelib chiqishi to'g'risidagi  
nazariyalar**

1. Diniy (teologik) nazariya; 2. Tabiiy huquq nazariyasi; 3. Patriarxal nazariya;
4. Sharhnomalik nazariyasi; 5. Zo'ravonlik nazariyasi; 6. Materialistik (sinfiy) nazariya;
7. Organik nazariya; 8. Biologik nazariya; 9. Psixologik nazariya; 10. Irrigatsion nazariya;
11. Iqtisodiy nazariya; 12. Jinsiy nazariya; 13. Sport nazariyasi;
14. Vatanparvarlik nazariyasi.

### **7-§. Davlat tushunchasi, belgilari, mohiyati va tiplari**

*Davlat* (arabcha – mamlakat) – o'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huquqlarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakatdir<sup>41</sup>.

Davlat jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etadi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadi. Shu ma'noda, davlat hokimiyatining asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatni uyushtirish va boshqarish hisoblanadi.

<sup>41</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — Д. ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20D.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20D.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

Davlat hokimiyatni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. *Hokimiyat* (arabcha – davlatchilik, boshqaruv, hokimlik) deganda, davlatni boshqarish huquqi; siyosiy hukmronlik; davlat organlarining huquq va vakolati tushuniladi<sup>42</sup>.

*Davlatning asosiy belgilari* quyidagilar hisoblanadi:

- 1) hudud;
- 2) aholi;
- 3) huquq tizimi;
- 4) suverenitet;
- 5) siyosiy hokimiyat;
- 6) soliq tizimi.

*Hudud.* Davlatgacha bo’lgan davrda jamiyatda insonlarning u yoki bu jamoaga mansubligi qon-qarindoshlik asosida aniqlangan. Urug’ jamoasi qat’i belgilangan hududga ega bo’lmagan va u yerdan-bu yerga ko’chib yurgan. Davlatning vujudga kelishi bilan jamiyatda aholining urug’chilik asosida uyushishi o’z ahamiyatini yo’qotib, hududiy asosda uyushish boshlangan.

Davlat qat’i chegaralangan hududga ega bo’ladi va uning suveren hokimiyati shu hududga tatbiq etiladi. Davlat hududi muayyan davlatning suvereniteti ostida bo’lgan hudud bo’lib, o’z ichiga quruqlik, suv, yer osti va havo bo’shlig’idagi makonlarni qamrab oladi.

Davlatning faktik hududi va yurisdiktsion hududi farqlanadi. Davlatning faktik hududi davlat chegarasi ichidagi makonlarni o’z ichiga olsa, yurisdiktsion hududi davlat suvereniteti amal qiladigan makonlardan iborat (chet el davlatlarida joylashgan elchixonalar, konsulliklar, harbiy qismlarning hududlari, kemalar va samolyotlar kabinalari).

O’zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi – O’zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo’shlig’ida) belgilovchi

---

<sup>42</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — X ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20H.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20H.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat<sup>43</sup>.

Ma'muriy-hududiy tuzilishidan kelib chiqib, davlat hududi ma'muriy-hududiy birliklarga bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar, shaharlar va Nukus shahridan, viloyatlar tumanlar va viloyatga bo'ysunuvchi shaharlardan, Toshkent shahri tumanlardan iborat.

*Aholi* (arabcha – ahl (xalq) so'zining ko'pligi) deganda, ma'lum bir hudud, viloyat, mamlakat va shu kabilarda istiqomat qiluvchi odamlar tushuniladi<sup>44</sup>. Aholisiz davlat mavjud bo'lmaydi.

Davlat hududida istiqomat qiluvchi aholi huquqiy maqomiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) fuqarolar; 2) chet el fuqarolari; 3) fuqaroligi bo'limgan shaxslar (apatriidlar); ikki fuqarolikka ega shaxslar (bipatriidlar).

Fuqaro – biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega bo'lgan) aholisi, fuqarolik – fuqaroning huquqiy holatidir<sup>45</sup>.

Fuqarolar davlat hududida istiqomat qiluvchi boshqa shaxslarga tegishli bo'limgan maxsus huquqlarga ega bo'ladi (hokimiyatning vakillik organlariga saylash va saylanish, davlat organlarida lavozimlarni egallash, ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish).

«Fuqarolik – o'zaro huquq va majburiyatlar hamda javobgarlikning mavjudligida ifodalanadigan, davlat hududida yashovchi shaxslarning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasidir. Bu shaxsning muayyan davlat ixtiyorida bo'lishi,

<sup>43</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегараси тўғрисида»ги 1999 йил 20 августдаги қонуни // <http://lex.uz>.

<sup>44</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — А ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>45</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Ф ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham davlatga mansub ekanligida namoyon bo'ladi. Ushbu mansublik huquqiy hujjatlar (pasport) yordamida tasdiqlanadi. Fuqarolik deganda, insonni siyosiy-huquqiy tomondan davlat hududida va uning tashqarisida himoyalanishi, qonuniy muhofazalanishi tushuniladi»<sup>46</sup>.

*Huquq tizimi.* Davlat siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi tashkilot sifatida huquq bilan uzviy (organik) bog'liqdir. Davlat o'z funksiyalarini huquqiy shakllarda amalga oshiradi. Xususan, umummajburiy normalarni o'rnatadi.

*Siyosiy hokimiyat.* Davlat ommaviy-siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi. «Ommaviy-siyosiy hokimiyat jamiyatning rivoji va ravnaqi manfaatlaridan kelib chiqib, uni boshqarishni amalga oshiradi. Ommaviy-siyosiy hokimiyat maxsus davlat apparati timsolida moddiylashadi, institutsiyalashadi. Uning ijtimoiyligi, ommaviylichi shundaki, davlat hokimiyati butun jamiyatga daxldor, davlat butun jamiyat (xalq) irodasini ifodalab, uning nomidan ish yurita oladi»<sup>47</sup>. «Davlat hokimiyati – bu davlat kuchiga tayanadigan, sub'ektlar o'rtasida hukmronlik va tobelikka asoslanadigan ommaviy-siyosiy munosabatlar tizimidir. Davlat hokimiyatini tavsiflovchi quyidagi belgilar mavjud: davlat hokimiyati universal xarakterga ega bo'lib, u mamlakatning butun hududi va aholisiga nisbatan tatbiq etiladi; davlat hokimiyati ommaviy-siyosiy xarakterga ega, ya'ni unda hokimiyat professional apparat tomonidan amalga oshiriladi; davlat hokimiyati umummajburiy tusdagi yurish-turish qoidalarini, ya'ni huquq normalarini yaratishda qat'iy vakolatga ega; davlat kuchiga tayanadi; davlat hokimiyati vaqt doirasida doimiy va uzlucksiz amalda bo'ladi»<sup>48</sup>.

*Souverenitet* (fransuzcha – souverainete – oliv hokimiyat) – davlatning ichki ishlarni olib borishda va tashqi munosabatlarda boshqa davlatlardan to'la

<sup>46</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 58.

<sup>47</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 74.


<sup>48</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 41.

mustaqilligidir<sup>49</sup>. «Suveren hokimiyat – bu oliv, mustaqil, bo’linmas, umumiy va uzviy, ya’ni ajralmas, begonalashtirib bo’lmash hokimiyatdir. Davlat suvereniteti quyidagilarda ifodalanadi: ichki va tashqi siyosat masalalarida mustaqil qaror qabul qila olishi; davlat hokimiyatining mamlakat butun hududiga tatbiq etilishi va davlat organlarining barcha aholi uchun umumiy majburiy qarorlar qabul qilishi; boshqa ijtimoiy-tashkiliy hokimiyatlar (partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar va boshqalar)ning qarorlarini bekor qila olishi»<sup>50</sup>.

*Soliq tizimi.* Soliqlar va yig’imlar davlatning paydo bo’lishi bilan birga paydo bo’lgan. Aholidan soliqlarni yig’ish (davlat byudjetini moliyaviy mablag’lar bilan to’ldirish) orqali davlat mexanizmi (apparati) saqlab turiladi va ularning faoliyati ta’milanadi. Davlat aholidan soliqlardan tashqari boshqa yig’imlarni ham undirishi mumkin.

Hudud, aholi, huquq tizimi, suverenitet, siyosiy hokimiyat, soliq tizimi – davlatning asosiy belgilari hisoblanadi. Shunga asoslangan holda aytish mumkinki, *davlat* – mamlakatning butun hududida va barcha aholisiga nisbatan siyosiy hokimiyatni amalga oshiradigan, umummajburiy normalar o’rnatadigan, maxsus boshqaruv apparatiga va suverenitetga ega bo’lgan siyosiy tashkilotdir.

Qayd etish joizki, davlatning qator qo’shimcha belgilarini ham ajratib ko’rsatish mumkin (davlat ramzlari, davlat tili, pul birligi, poytaxti va h.k.).



<sup>49</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — С харфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20S.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20S.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>50</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 74-75.

*Davlatning mohiyati* – uning eng muhim, barqaror belgi va xususiyatlarining majmuidir. Davlat hokimiyati kimga tegishli, uni kim va qaysi manfaat yo'lida amalga oshiradi, degan savolga javob berish orqali davlatning mohiyatini yoritish mumkin.

Davlatning mohiyati xususida quyidagi yondashuvlar shakllangan:

1) *elitar nazariya* (V.Pareto, G.Moski, X.Lassuel, D.Sartori, T.Day) – keng xalq ommasi davlat hokimiyatini amalga oshirish (jamiyatni boshqarish)ga layoqatli emasligi, davlat hokimiyati jamiyatning yuqori qismi (elita)ga tegishli ekanligi, har safar hokimiyat tepasida bir elita ikkinchi elitanı almashtirib turishi, elitalar turli belgilari (kelib chiqishi, ma'lumoti, tajribasi, qobiliyati kabilalar)ga qarab aniqlanishi, elita saflari xalqning eng qobiliyatli vakillari bilan to'ldirib borilishi, hokimiyat uchun bir qancha elitalar kurash olib borishi, xalq o'z saylov huquqidan foydalanib, elitalar faoliyatini nazorat qilishi haqidagi ta'limot;

2) *texnokratik nazariya* (T.Veblen, D.Barnxeym, G.Saymon, D.Bell) – jamiyatni mutaxassis-boshqaruvchilar (menejerlar) idora etishi lozimligi, aynan ular jamiyatning haqiqiy ehtiyojlarini, uning eng maqbul rivojlanish yo'llarini, buning uchun zarur vositalarni aniqlashga layoqatli ekanligi, davlat hokimiyatining bunday tashkil etilishi boshqaruvni ilmiy asosda olib borish imkonini berishi va jamiyatning o'sib boruvchi rivojini ta'minlashi haqidagi ta'limot. Ushbu nazariyada davlat katta bir korporatsiyaga o'xshatiladi, muayyan korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining mutassil o'sib borishi ko'p jihatdan boshqaruvning to'g'ri va ilmiy jihatdan tashkil etilganligiga bog'liq ekanligi, bunda menejer-boshqaruvchilar asosiy o'rinni tutishi tushuntiriladi;

3) *sinfiy (tarixiy-materialistik) nazariya* (K.Marks, F.Engels) – davlat hokimiyati iqtisodiy jihatdan hukmron bo'lgan sinfga tegishli ekanligi va uning manfaati yo'lida amalga oshirilishi, davlat iqtisodiy hukmron sinfning siyosiy hokimiyatini mazlum sinf ustidan amalga oshirish, uning qarshiligini bostirish quroli (diktatura – hech qanday qonun bilan cheklanmagan va zo'ravonlikka, majburlashga, kuchga tayanadigan hokimiyat) hisoblanishi haqidagi ta'limot.

«Mazkur nazariya vakillarining fikricha, sotsialistik tipdagi davlatning maqsadi kommunistik jamiyatni barpo etish, oxir-oqibat davlatning barham topishiga erishishdan iborat<sup>51</sup>». «Proletar inqilobi tufayli xususiy mulk, sinflar, davlat tugatilib sifdsiz, davlatsiz kommunistik jamiyat quriladi»<sup>52</sup>;

4) *demokratik nazariya* – xalq hokimiyatning yagona manbai hisoblanadi, hokimiyat unga tegishlidir. Xalq o’zining vakillik organlarini shakllantiradi va ular orqali hokimiyatni amalga oshiradi;

5) *umumi farovonlik davlati nazariyasi* (D.Keyns, D.Myurdal, A.T.Sigu, K.Boulding, V.Mund) – davlatning ijtimoiy hayotga aralashmasligiga oid oldindan mavjud ta’limotga qarshi chiqadi, bunda huquqbazarlik holatlari istisno etiladi («davlat – tungi qorovul» nazariyasi), davlat barcha sinflardan ustun turishi, aholi barcha qatlamlarining manfaatlarini ifodalashi, umumfarovonlikni ta’minlashi haqidagi ta’limot;

6) *konvergentsiya nazariyasi* (D.Gelbreyt, R.Aron, P.Sorokin) – mavjud davlatlarning ijobiy jihatlarini uyg’unlashib borish orqali ma’lum vaqtidan keyin ular o’rtasidagi o’zaro farqlar yo’qoladi va yagona tipdagi umumi farovonlik davlatlari yuzaga keladi.



- \* elitar nazariya;
- \* texnokratik nazariya;
- \* sinfiy (tarixiy-materialistik) nazariya;
- \* demokratik nazariya;
- \* umumi farovonlik davlati nazariyasi;
- \* konvergentsiya nazariyasi.

<sup>51</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 40.

<sup>52</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Х.Т.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошқ. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 56.

*Davlat tipologiyasi* – davlatning o’ziga xos belgi va xususiyatlarini ajratish asosida uning muayyan tur (tip)ga mansubligini aniqlash haqidagi ta’limotdir. Davlat tipologiyasi davlatlarni muayyan mezonlar asosida turlarga ajratish (tasniflash, klassifikatsiya qilish)ni nazarda tutadi.

Davlatlarni tiplarga ajratish bo'yicha formatsiyaviy (sinfiy), sivilizatsiyaviy (ma'rifiy) va noan'anaviy yondashuvlar mavjud.

*Formatsiyaviy yondashuvda* davlatlar mohiyati, maqsadi, vazifalari, funksiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, fuqarolarning siyosiy-huquqiy maqomi, ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, quzdorlik, feodal, kapitalistik (burjua), sotsialistik va demokratik davlatlarga ajratiladi.

Ushbu yondashuvda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning almashinuvi ijtimoiy inqiloblar natijasida sodir bo'lishi, bu davlatning bir tarixiy tipidan boshqa, undan yuqoriq ikkinchi tipiga o'tishini nazarda tutishi tushuntiriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (insoniyat taraqqiyoti bosqichlari)ning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) ibridoiy (urug'chilik) jamiyat;
- 2) quzdorlik jamiyat;
- 3) feodal jamiyat;
- 4) kapitalistik (burjua) jamiyat;
- 5) sotsialistik jamiyat;
- 6) kommunistik jamiyat;
- 7) demokratik jamiyat.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalardagi davlatlarning quyidagi turlari farqlanadi:

- 1) quzdorlik davlati;
- 2) feodal davlati;
- 3) kapitalistik (burjua) davlat;
- 4) sotsialistik davlat;
- 5) demokratik davlat.

Ibtidoiy (urug'chilik) jamiyat davlatgacha bo'lган davrda amalda bo'lган. Davlat tarixiy nuqtai nazardan quldorlik davlati sifatida vujudga kelgan.

*Sivilizatsiyaviy yondashuvda* formatsiyali yondashuv to'liq inkor etilmagan holda, davlat tipologiyasi mamlakatlar erishgan taraqqiyot darajasiga bog'liq ekanligi tushuntiriladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, davlat sivilizatsiya mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Sivilizatsiyaviy yondashuvda davlatlar quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- 1) hududining hajmi bo'yicha: katta, o'rta va kichik davlatlar;
- 2) tarixiy nuqtai nazardan yondashish bo'yicha: qadimiy, o'rta asr va hozirgi zamon davlatlari;
- 3) tarixiy va madaniy rivojlanishi bo'yicha: dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi (agrар) va sanoat bilan shug'ullanuvchi (industrial) davlatlar;
- 4) ma'rifiylik tavsifi bo'yicha: SHarq va Fapb davlatlari;
- 5) iqtisodiy rivojlanishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha: yuksak darajada rivojlangan, o'rta darajada rivojlangan va qashshoq davlatlar.

Sivilizatsiyaviy yondashuvda madaniy, ma'naviy mezonlarning ko'pligi va muayyan sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olinishi davlatlarni aniq tasniflash imkonini beradi.

*Noan'anaviy yondashuvda* davlatlar qator mezonlar asosida turlarga ajratiladi:

- 1) siyosiy rejimiga ko'ra: demokratik va nodemokratik davlatlar;
- 2) hududiy joylashuviga ko'ra: Osiyo, Evropa va Afrika davlatlari;
- 3) muayyan tashkilotga a'zoligiga ko'ra: MDH, Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lган davlatlar va h.k.;
- 4) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra: eng rivojlangan, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar.

## Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning turlari

- \* ibtidoiy (urug'chilik) jamiyat;
- \* quldarlik jamiyati;
- \* feodal jamiyati;
- \* kapitalistik (burjua) jamiyat;
- \* sotsialistik jamiyat;
- \* kommunistik jamiyat;
- \* demokratik jamiyat.

### 8-§. Davlat funksiyalari

*Vazifa* – amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad, maqsadli ishdir<sup>53</sup>.

Jamiyatning barqaror turmush tarzini ta'minlash davlatning eng asosiy vazifasi (amalga oshirishi, hal qilishi lozim bo'lgan maqsadli ishi) hisoblanadi. Davlat o'z vazifalarini *funksiyalari* orqali amalga oshiradi.

*Funksiya* tushunchasi lotin tilidan (functio) olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan «ijro etish», «bajarish» ma'nosini anglatadi<sup>54</sup>.

*Davlat funksiyalari* – davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy, eng muhim yo'nalishlaridir.

<sup>53</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — В ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20V.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20V.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>54</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — Ф ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

Batafsil qilib aytganda, davlat funksiyalari – davlat organlari butun tizimining jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan barqaror rivojlantirishga qaratilgan yaxlit, o’zaro bog’liq faoliyatining asosiy yo’nalishlari hisoblanadi.

Davlat funksiyalari taraqqiyotning u yoki bu bosqichida jamiyat oldida turgan asosiy vazifalarga qarab belgilanadi va bu vazifalarni ro’yobga chiqarishning vositasi sifatida namoyon bo’ladi.

Ta’kidlash joizki, «maqsad», «vazifa» va «funksiya» – o’zaro uzviy bog’liq tushunchalar hisoblanadi. «Maqsad bu muayyan davlatning taraqqiyotidagi keyingi bosqichda erishmoqchi bo’lgan holati bo’lsa (masalan, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, huquqiy demokratik davlat barpo etish), vazifa esa ushbu maqsadga erishish uchun hal etilishi lozim bo’lgan masalalar, funksiya – vazifalar echimiga yo’naltirilgan faoliyat yo’nalishidir»<sup>55</sup>.

Funksiyasiz davlatning birorta ham vazifasi hal etilmaydi. Bitta funksiya orqali davlatning bir qator vazifalari bajarilishi yoki aksincha bo’lishi mumkin.

*Davlat funksiyalari tasnifi.* Ilmiy va amaliy maqsadlarda davlat funksiyalari turli *mezonlar* bo’yicha tasniflanadi.

Davlat funksiyalari tasnifi:

1) *amal qilish davomiyligi bo’yicha:*

a) doimiy funksiyalar – davlat taraqqiyotining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi;

b) vaqtinchalik funksiyalar – ijtimoiy taraqqiyotning o’ziga xos shart-sharoitlari bois kelib chiqadi va bunday ehtiyojga o’rin qolmaganidan keyin barham topadi;

2) *faoliyat doirasi bo’yicha:*

a) ichki funksiyalar – davlatning ichki vazifalarini echishga, jamiyat hayoti ustidan rahbarligini amalga oshirishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo’nalishlari;

b) tashqi funksiyalar – davlatning davlatlararo miqyosdagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo’nalishlari;

---

<sup>55</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / Ш.Сайдуллаев. — Т.: ТДЮУ, 2018. — Б. 48.

3) *ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha*: a) iqtisodiy funksiya; b) ijtimoiy funksiya; v) siyosiy funksiya; g) ma'naviy funksiya;

4) *ijtimoiy ahamiyati bo'yicha*: a) asosiy funksiya (birinchi navbatda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor funksiyalar); b) asosiy bo'lman funksiya.

5) *hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi bo'yicha*: a) qonun ijodkorligi funksiyasi; b) boshqaruv funksiyasi; v) huquqni muhofaza qilish va sudlov funksiyasi; g) axborot funksiyasi («to'rtinchi hokimiyat» deb ataluvchi ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq funksiya).

*Davlatning ichki funksiyalari*. Davlatning ichki funksiyalari – uning jamiyat ichki hayotini boshqarish bo'yicha faoliyatining asosiy yo'naliishlaridir.

Davlat faoliyatining sohalaridan kelib chiqib, uning ichki funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) iqtisodiy funksiya – davlat tomonidan mamlakat iqtisodiyotini eng maqbul sharoitda rivojlantirishning strategik yo'naliishlari ishlab chiqilishi va muvofiqlashtirilishida o'z ifodasini topadi;

2) ijtimoiy funksiya – shaxsning ijtimoiy himoyalanganligi, moddiy boyliklar yaratishda bevosita ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligidan qat'i nazar, jamiyatning barcha a'zolari uchun munosib turmush sharoitini ta'minlashga qaratiladi;

3) moliyaviy nazorat funksiyasi – ishlab chiqaruvchilarning daromadlari davlat tomonidan aniqlanishi va hisobga olinishida o'z ifodasini topadi. Qonunga binoan bunday daromadlarning muayyan qismi ijtimoiy va boshqa umumdavlat ehtiyojlarini qondirish uchun davlat byudjetiga soliqlar tarzida yo'naltiriladi;

4) huquqiy tartibotni ta'minlash (huquqni muhofaza qilish) funksiyasi – davlatning ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilari davlat tomonidan chiqariqlan qonunlarni aniq va to'la bajarishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;

5) tabiatni muhofaza qilish (ekologik) funksiyasi – davlatning atrof-muhitga nisbatan o'ta oqilona munosabatda bo'lishni ta'minlashga qaratilgan faoliyati;

6) ta’lim funksiyasi – fuqarolarning ta’lim sohasidagi konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish va ta’limga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ko’maklashuvchi davlat va nodavlat muassasalari tizimini muvofiqlashtirish va rivojlantirish hamda boshqarish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Davlatning tarixiy rivojlanishi jarayonida uning funksiyalari tizimida muayyan o’zgarishlar bo’lib turadi: ayrim funksiyalari yo’qoladi, boshqalari takomillashib, boshqacha mazmun kasb etadi, uchinchilari esa yangitdan vujudga keladi.

*Davlatning tashqi funksiyalari* – davlat xalqaro maydonda olib boradigan faoliyatining asosiy yo’nalishlaridir. Bunday faoliyat boshqa davlatlar bilan ijobiy munosabatlar o’rnatish va ularni saqlash hamda ehtimol tutilgan tashqi tajovuzdan mamlakatni mudofaa qilishni ta’minlashdan iborat davlatning tashqi vazifalarini hal etishga qaratilgan. Shunga ko’ra, davlatning tashqi funksiyalari quyidagicha tasniflanadi: 1) jahon hamjamiyatining barcha davlatlari bilan o’zaro manfaatlil hamkorlik funksiyasi; 2) tashqi hujumlardan mamlakatni mudofaa qilish funksiyasi.

Hozirgi vaqtida davlatlarning tashqi faoliyati xalqaro-huquqiy normalarga asoslanadi, jahon hamjamiyatiga kiruvchi barcha xalqlarning tub manfaatlari va milliy xususiyatlarini imkon qadar hisobga oladi.

Davlatlarning teng huquqli sherikchiligi, jamiyat oldida turgan umumiyl muammolarni hal etish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlari insoniyatning farovon turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Misol uchun, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik natijasida ko’pchilik davlatlarning sayyoramizda mo’’tadil ekologik vaziyatni asrab qolish borasidagi say'-harakatlari birlashtirilmoqda. Bu borada davlatlarning kosmonavtika, tibbiyot, biologiya, elektronika sohalarida erishgan eng yangi yutuqlaridan foydalanimoqda. Natijada insoniyat hayotining davom etishi va rivojlanishi uchun zarur bo’lgan ekologik shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda radioaktiv chiqindilar, suv va havo resurslarining sanoat chiqindilari bilan ifoslantirilishi, yerlarning cho'lga aylanishi, o'rmonlarning kamayib ketayotganligi, shuningdek demografiya (nufus), xom ashyo, kosmos, inson organlarini transplantantsiya qilish, jinsni o'zgartirish, sun'iy homila, evtanaziya, Internet kabilar bilan bog'liq umumbashariy muammolar yuzaga kelmoqda. Insoniyat taraqqiyotiga daxldor bu kabi masalalar, o'z navbatida, ushbu sohalarni nazorat qilish va tartibga solish borasida *davlatning global funksiyasini* shakllantirmoqda.

Davlat funksiyalari quyidagi huquqiy shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) huquq ijodkorligi (normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va ularni qabul qilish);
- 2) huquqni ijro etish (normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan normalarni amalga oshirish);
- 3) huquqni muhofaza qilish (huquq-tartibotni saqlash, shaxs, jamiyat va davlat manfatlarini muhofaza qilish).

Davlat funksiyalari quyidagi usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi:

- 1) ishontirish (insonlarning irodasiga mos ravishda tanlash erkinligini ta'minlagan holda muayyan faoliyat yuritishga undash);
- 2) majburlov (insonlarni tanlov huquqini cheklagan holda kuch ishlatish orqali muayyan faoliyat yuritishga undash);
- 3) tavsiya qilish (insonlarni jamiyat va davlat nuqtai nazaridan istalgan va ijobjiy xatti-harakatni amalga oshirishga yo'naltirish);
- 4) rag'batlantirish (insonlarni rag'batlantirish orqali ijtimoiy foydali faoliyat yuritishga undash).

## Davlat funksiyalari tasnifi

- \* Amal qilish davomiyligi bo'yicha: doimiy funksiyalar; vaqtinchalik funksiyalar.
- \* Faoliyat doirasi bo'yicha: ichki funksiyalar; tashqi funksiyalar.
- \* Ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha: iqtisodiy funksiya; ijtimoiy funksiya; siyosiy funksiya; ma'naviy funksiya.
- \* Ijtimoiy ahamiyati bo'yicha: asosiy funksiya; asosiy bo'lмаган funksiya.
- \* Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi bo'yicha: qonun ijodkorligi funksiyasi; boshqaruv funksiyasi; huquqni muhofaza qilish va sudlov funksiyasi; axborot funksiyasi.

### 9-§. Davlatning shakllari

Jamiyatning rivojlanishi va aholi ongining o'sishi natijasida davlat shakllari o'zgarib turadi va takomillashib boradi.

*Shakl* (arabcha – ko'rinish) deganda, narsaning tashqi ko'rinishi, ifodasi; mazmunning ifoda tomoni, tashqi ko'rinishi, ifodalanishi tushuniladi<sup>56</sup>.

*Davlat shakli* deganda, boshqaruvi, tuzilishi va siyosiy rejimiga ko'ra davlatlarning ko'rinishi (ifodasi) tushuniladi. Shunga ko'ra, davlat shakli – davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejim (davlat-huquqiy rejim, siyosiy idora usuli)ni o'z ichiga oladi.

*Davlat boshqaruv shakli* – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini shakllantirish va tashkil etish tartibi, ularning o'zaro va aholi bilan munosabati, aholining ushbu idoralarni shakllantirishda ishtirok etish darajasidir. Davlat boshqaruv shakli mamlakatda kim hukmron, u hokimiyatni qanday boshqaradi, degan savollarga javob beradi.

<sup>56</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — III ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Sh.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20Sh.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

Boshqaruv shakliga ko'ra davlatlar quyidagicha tasniflanadi:

- 1) monarxiya;
- 2) respublika.

*Monarxiya* (yunoncha – monarchia – yakka hokimlik) deganda, davlatning oliy hokimiyati yakka hukmdor (monarx) qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli va shunday boshqaruv shakliga ega bo'lgan davlat tushuniladi<sup>57</sup>.

Monarxiyaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

– monarx (imperator, xon, podsho, sulton, qiro, amir, shoh va h.k.) tashqi va ichki siyosatda davlat boshlig'i hisoblanadi, davlatni yakka hokimlik asosida boshqaradi, eng muhim davlat ishlarini hal qiladi, qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi, muddatsiz, umrbod hokimiyat egasi hisoblanadi;

– monarx hokimiyati muqaddas va daxlsiz deb e'lon qilinadi, monarx o'z boshqaruv faoliyati natijasi uchun yuridik va siyosiy javobgar hisoblanmaydi;

– hokimiyatni o'rnatish va qabul qilishning alohida tartibi mavjud, hokimiyat vorislik asosida bir avloddan ikkinchi avlodga meros bo'lib o'tadi, hokimiyatni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tishiga xalqning hech qanday aloqasi bo'lmaydi, hokimiyatning hukmdor tomonidan egallanishi va uning faoliyat ko'rsatishi maxsus marosimlar orqali amalga oshiriladi.

Monarxiyaning quyidagi turlari mavjud:

1) *mutlaq (absolyut) monarxiya* – davlat hokimiyati cheklovlar siz (boshqa bironta idora vakolatlari yoki qonunlar asosida cheklanmagan holda) monarx qo'lida bo'lgan boshqaruv shakli. Monarx hokimiyatdan muddatsiz (umrbod) foydalanadi, taxtni meros yoki qarindoshlik bo'yicha egallaydi hamda o'z xattiharakatlari uchun qonun yoki biror davlat organi oldida javobgar bo'lmaydi, balki faqat xudo oldida mas'uliyatning mavjudligida namoyon bo'ladi. Davlat boshlig'i, ya'ni monarx tomonidan qabul qilingan qonun yoki boshqa turdag'i huquqiy hujjatning biror-bir shaxs tomonidan bajarilmasligi holatida u faqat yuridik

<sup>57</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — М ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

javobgarlikka tortilibgina qolmay, balki monarx xudoning yerdagi vakili hisoblangani uchun uning amrini bajarmaslik katta gunoh sanaladi va xudoning qahriga uchraydi hamda inson o'limidan so'ng narigi dunyoda xudo oldida ham javob berishi haqida uqtiriladi. Monarx hokimiyati ilohiylashtirilgan shaklda namoyon bo'ladi;

2) *cheklangan (konstitutsion) monarxiya* – monarx hokimiyati, uning vakolatlari konstitutsiya va qonun asosida yoki davlatning biron-bir vakolatli idorasi tomonidan cheklangan boshqaruv shakli. Cheklangan monarxiya dualistik va parlamentar monarxiyaga ajratiladi.

*Dualistik monarxiyaning asosiy belgilari:*

- mutlaq monarxiyadan parlamentar monarxiyaga o'tishda oraliq shakl hisoblanadi;
- hukmdor bilan bir qatorda, mutlaq monarxiya uchun xos bo'limgan boshqa davlat hokimiyati oliy organlari – parlament va hukumat mavjud bo'ladi;
- hokimiyat monarch tuzadigan hukumat va parlament o'rtasida bo'linadi;
- parlament va hukumat a'zolari hukmdor tomonidan tayinlanadi va uning oldida shaxsan javobgar bo'ladi;
- davlat boshlig'inining vakolatlari qisman cheklangan bo'lsada, u aslida davlat boshlig'i funksiyasini amalga oshiradi;
- Saudiya Arabistoni, Quvayt, Nepal kabi davlatlarning boshqaruv shaklini misol sifatida keltirish mumkin.

*Parlament* (fransuzcha – parlement – rasmiy so'zlashish joyi) deganda, saylov asosida tuziladigan oliy vakillik va qonunchilik organi tushuniladi<sup>58</sup>.

Parlamentar monarxiyaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- hokimiyatning taqsimlanishiga amal qilinadi, hokimiyat hukmdor bilan birga davlat hokimiyatining oliy organlari (parlament, hukumat va boshqa organlar) o'rtasida taqsimlangan bo'ladi;

---

<sup>58</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — II ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

- parlament xalq tomonidan ko'ppartiyaviylik asosida saylash yo'li bilan shakllantiriladi;
- hukumatni parlamentda ko'pchilik o'rinni egallagan partiya tuzadi, hukumat parlament oldida hisob beradi;
- eng ko'p deputatlik mandatiga ega bo'lgan partiya rahbari huqumatga boshchilik qiladi;
- hukmdor siyosiy hayotda ishtirok etadi, lekin uning hokimiyat funksiyalari juda kam bo'lib, tantanavor marosimlar xususiyatiga ega bo'ladi (hukumatning o'z vakolatlarini zimmasidan soqit qilishini qabul qilish, xalqaro munosabatlarda davlat nomidan vakillik qilish, davlat nishonlarini taqdim etish va h.k.);
- ba'zi parlamentar monarxiyada hukmdor qo'lida davlatni boshqarishning real vositalari mavjud bo'ladi. Masalan, Buyuk Britaniyada qirolicha parlamentni tarqatib yuboradi, u ayni vaqtida, sud hokimiyati va cherkov boshlig'i hisoblanadi;
- qonunlarni parlament qabul qiladi va monarx tomonidan imzolangach yuridik kuchga kiradi;
- Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Ispaniya, Belgiya, Niderlandiya, Daniya, Norvegiya kabi davlatlarning boshqaruv shaklini misol sifatida keltirish mumkin.

3) *noan'anaviy monarxiya* – ham respublikaga, ham monarxiyaga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan boshqaruv shakli.

Birlashgan Arab Amirliklarida:

- hokimiyatning oliv organi 7 ta amirlikning shayxlaridan iborat Oliy kengash hisoblanadi. Mazkur kengash a'zolari 5 yil muddatga davlat boshlig'i (oliv amir)ni saylaydi;
- oliv amir faqatgina 7 ta amirlik rahbarlaridan va kelajakda shu amirlarning taxt merosxo'rlaridan saylanadi. Amir lavozimi esa faqatgina yagona avlod va uning merosxo'rlariga tegishlidir. Hukmdorning taxtni egallashi jarayoni xalqning irodasiga bog'liq bo'limgan holda shakllantiriladi (monarxiyaga xos xususiyatlar);

– oliy amir saylov yo’li bilan belgilanib, u muayyan davrgacha vakolatli hisoblanadi (sayloving mavjudligi va muayyan muddatning o’rnatilganligi respublikaga xos xususiyatdir).

Malayziyada:

– davlat boshlig’i (oliy hukmdor, podshoh) 9 ta shtat sultonlari kengashida yashirin ovoz berish yo’li bilan 5 yil muddatga saylanadi;

– davlat boshlig’i tor doiradagi shaxslar tomonidan muayyan davrga saylanadi;

– davlat boshlig’i lavozimiga faqat sulton va uning qavm-qarindoshlari tarkibidan nomzodlar taqdim etilishi mumkin.

*Respublika* (lotincha – res publica – umumxalq ishi) deganda, oliy davlat hokimiysi ma’lum muddatga saylanadigan hokimiyat organi (prezident yoki parlament)ga tegishli bo’lgan boshqaruv shakli; shunday boshqaruv shakliga ega bo’lgan davlat tushuniladi<sup>59</sup>.

Respublikaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

– hokimiyat oliv organlarining saylab qo’yilishi (bevosita xalq tomonidan yoki xalq saylagan organlar tomonidan);

– hokimiyat oliv organlarining vakolati muayyan muddatga belgilanishi;

– hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi;

– qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organlar (sudlar)ning mavjudligi;

– fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishi.

Respublikaning quyidagi turlari mavjud:

1) prezidentlik respublikasi;

2) parlamentar respublika;

3) aralash (prezidentlik-parlamentar) respublika.

---

<sup>59</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати — Р харфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

*Prezident* (lotincha – praesidens – oldinda o’tiruvchi) deganda, ma’lum muddatga saylab qo’yiladigan davlat boshlig’i tushuniladi<sup>60</sup>.

Prezidentlik respublikasi – Prezident umumxalq saylovida saylanadigan va bir vaqtning o’zida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig’i hisoblanadigan davlat boshqaruvi shaklidir.

Prezidentlik respublikasining asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- «kuchli prezident» qoidasiga asoslaniladi;
- prezident hukumat boshlig’i hisoblanib, uni tuzadi va hukumat prezident oldida hisobot beradi;
- prezident ham rasman, ham amalda davlat boshlig’i hisoblanib, maxsus tartibda xalq yoki saylovchilar hay’ati tomonidan saylanadi, shu bois u parlamentdan mustaqil holda faoliyat yuritadi;
- prezident mustaqil holda normativ va normativ bo’limgan hujjatlar qabul qilish hamda parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo’yish huquqiga ega;
- davlat boshlig’i keng vakolatlarga va mamlakatda hokimiyatni amalga oshirishda muhim nufuzga ega bo’lib, shaxsan o’zi yoxud parlament roziligi bilan hukumat a’zolarini tayinlaydi hamda vazifasidan ozod qiladi, shuningdek ba’zi hollarda parlamentni ham tarqatib yuborish huquqiga ega;
- prezident ijroiya hokimiyat rahbari bo’lsada, ayni vaqtning o’zida millatning yaxlitligi ramzi hisoblanadi;
- prezident mamlakatda oliy bosh qo’mondon vazifasini ham amalga oshiradi;
- O’zbekiston, Rossiya kabi davlatlarning boshqaruv shaklini misol sifatida keltirish mumkin.

*Parlamentar respublika* – Parlament to’liq hokimiyatga ega bo’lib, hukumat uning oldida siyosiy javobgar hisoblanadigan, parlament tomonidan saylangan

---

<sup>60</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — II ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20P.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

prezident esa faqat davlat boshlig'i, ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sanaladigan davlat boshqaruvi shaklidir.

Parlamentar respublikaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat hokimiyati organlari tizimida parlament muhim mavqega ega;
- parlament hukumatni tuzishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, hukumat parlament oldida hisobdordir;
- hukumatni parlament saylovlarda eng ko'p o'rin egallagan partiya tuzadi;
- davlatning amaldagi rahbari hukumat boshlig'i (bosh vazir) bo'lib, u qoidaga ko'ra saylovlarda g'olib chiqqan partiya yo'lboschchisi hisoblanadi;
- hukumat o'z vazifalarini qonun chiqaruvchilarning aksariyati qo'llab-quvvatlasagina bajarishi mumkin, bunday ishonchdan mahrum bo'lgan taqdirda, u iste'foga chiqadi;
- prezidentlik lavozimi ko'zda tutilgan bo'lsa-da, odatda, u katta mavqega ega bo'lmaydi. Ushbu boshqaruvi shaklida «kuchli parlament» qoidasi amalda bo'lib, parlament keng doiradagi vakolatlarga ega bo'ladi;
- Germaniya, Avstriya, Italiya, Hindiston kabi davlatning boshqaruvi shaklini misol sifatida keltirish mumkin.

*Aralash (prezidentlik-parlamentar) respublika* boshqaruvi shakli boshqaruvi amaliyotida kam uchraydi.

Aralash respublikaning asosiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:

- aralash respublika shakli mamlakatda bir vaqtning o'zida «kuchli parlament» va «kuchli prezident» mavjudligi bilan boshqaruvning boshqa shakllaridan keskin farq qilib, prezident va parlament vakolatlari o'rtasidagi muvozanatning mavjudligida namoyon bo'ladi;
- prezident umumxalq ovoz berish yo'li bilan saylanadi. U keng vakolatlarga ega bo'lsa-da, lekin hukumat boshlig'i bo'lmaydi. Prezidentlik lavozimi bilan bir qatorda, keng vakolatlarga ega bo'lgan bosh vazir mansabi nazarda tutiladi. Hukumatni tuzishda prezident ham, parlament ham faol ishtirok etadi. Hukumat

ham parlament oldida (ishonchsizlik votumi), ham prezident oldida (iste'fo) mas'uldir;

– Frantsiya, Ukraina kabi davlatlarning boshqaruv shaklini misol sifatida keltirish mumkin.

*Davlat tuzilishi shakli* – davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi hamda markaziy va mahalliy hokimiyat idoralarining o'zaro munosabatidir.

Tuzilish shakliga ko'ra, davlatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) unitar davlat;
- 2) federativ davlat;
- 3) konfederativ davlat.

*Unitar* (fransuzcha – unitaire – yagona, yaxlit; lotincha – unitas – birlik, birlashish) davlat tuzilishi shaklida butun davlat hududi, federatsiyadan farqli ravishda, o'z tarkibida federativ birliklar (respublikalar, shtatlar va h.k.)ga ega bo'lmaydi, balki davlat suvereniteti alomatlari bo'lмагan ma'muriy-huquqiy birliklar (departamentlar, viloyatlar, tumanlar va h.k.)ga bo'linadi<sup>61</sup>.

Unitar davlat oddiy tuzilishga ega yaxlit davlat bo'lib, uning tarkibida suveren davlat maqomiga ega bo'lgan ma'muriy-huquqiy birliklar, ya'ni «davlat ichidagi davlatlar» bo'lmaydi.

Unitar davlatda yagona boshqaruv organlari tizimi, yagona fuqarolik, yagona qonunchilik tizimi, yagona davlat chegarasi amal qiladi.

Unitar davlatlarga Frantsiya, Italiya kabi oddiy tarkibiy tuzilishga ega davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

*Avtonom hududli unitar davlat* – unitar davlatning alohida turi hisoblanadi. Avtonom hududli unitar davlatda yagona hudud tarkibida avtonom ma'muriy-huquqiy birliklar bo'ladi.

Avtonom hududli unitar davlatga Xitoy, Ispaniya, Daniya kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

---

<sup>61</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — У ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20U.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20U.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

*Federativ davlat.* Federatsiya (lotincha – foederatio – ittifoq, birlik) – alohida mustaqil davlatlar yoki respublikalarning birlashuvi asosida tuzilgan yaxlit davlat, davlat yoki respublikalar birlashmasidir<sup>62</sup>.

Federativ davlat – teng huquqli mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida tashkil topadi.

Federativ davlatga AQSh, Kanada, Meksika, Germaniya kabi davlatlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Federativ davlatning belgilari quyidagilardan iborat:

- federativ davlat hududi uning sub'ektlarining hududlari yig'indisidan iborat bo'ladi;
- federativ davlatda hokimiyatning oliv organlari (qonun chiqaruvi, ijro etuvchi va sud hokimiyati) ikki pog'onali bo'ladi (federal darajada va federatsiya sub'ektlari darajasida);
- federativ davlatda ikki fuqarolik mavjud bo'lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o'zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya sub'ekti fuqarosi ekanligini bildiradi;
- federativ davlat oliv qonun chiqaruvchi (vakillik) idorasi ikki palatali tuzilishga ega bo'lib, quyi palata butun mamlakatning manfaatini, yuqori palata federatsiya sub'ektlari manfaatlarini ifoda etadi;
- federativ davlatda markaziy hukumatga bo'ysunuvchi yagona qurolli kuchlar, politsiya, xavfsizlik xizmatlari, bojxona tizimi mavjud bo'ladi;
- federativ davlat sub'ektlari davlat belgilariga (o'z konstitutsiyasiga), oliv davlat hokimiyat organlariga (sub'ekt boshlig'i, parlament, hukumat), o'z ramzlariga ega bo'ladi.

Federatsiya tarkibiga kiruvchi davlatlar ixtiyoriy ravishda birlashib markazlashgan davlatni tashkil qiladi. Federatsiyada barcha a'zo sub'ektlar nomidan markaziy idoralar ish olib boradi va uning manfaatlarini ifoda etadi.

---

<sup>62</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — Ф ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20F.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

Federativ davlatning quyidagi turlari mavjud:

*hududiy federativ davlat* – mamlakatni hududiy belgisi bo'yicha taqsimlash prinsipiiga asoslangan. Bu qoidaga ko'ra, hududi juda katta bo'lgan davlatlarda, boshqaruvni osonlashtirish maqsadida federatsiya tuziladi. Federatsiyaning ushbu turini tashkil etuvchi davlat tuzilmalari suveren bo'lmaydi. Sub'ektlar xalqaro munosabatlarda bevosita ishtirok etish huquqidan konstitutsiya bilan mahrum etilgan bo'lib, ularning ittifoqdan bir tomonlama chiqishi taqiqlangan. Qurolli kuchlarni ittifoq idorasi boshqaradi. AQSh, Braziliya, Meksika hududiy federatsiyalarga misol bo'ladi;

*milliy federativ davlat* – sub'ektlar, ularda yashovchi millatlar mustaqilligi asosida tuziladi. Qoidaga ko'ra, milliy federatsiya mustahkam tuzilma bo'lib hisoblanadi. Milliy federatsiyada federatsiya sub'ektlari – milliy davlatlar va milliy davlat tuzilmalaridan iborat bo'lib, ular asosan sub'ektlarning ixtiyoriylik prinsipiiga muvofiq birlashadi. Katta va kichik millatlar suvereniteti kafolatlanadi hamda oliy davlat idoralari federatsiya sub'ektlarining vakillaridan tashkil etiladi. Mazkur federatsiyaga birlashgan barcha millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ladilar;

*milliy-hududiy federativ davlat* – ham milliy, ham hududiy prinsip asosida ittifoq shakllantiriladi. Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi misol bo'ladi.

*Konfederativ davlat*. Konfederatsiya (lotincha – confoederatio – ittifoq, uyushma, birlashma) – mustaqilligini saqlagan holda muayyan masalalarda o'z davlat hokimiyati va organlariga ega bo'lgan davlatlar tomonidan tuziladigan davlat qurilishi shaklidir<sup>63</sup>.

Konfederatsiya bir necha davlatlarning ayrim muhim sohalar, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, mudofaa masalalari bo'yicha tuzgan ittifoqidir. Konfederatsiyada yagona davlat hududi, yagona fuqarolik bo'lmaydi. Konfederatsiya bu to'la mustaqil

---

<sup>63</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — К ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

davlatlarning ayrim sohalar bo'yicha tuzadigan ko'ngilli ittifoqidir. Konfederatsiya davlat tuzilish shakli hisoblanib, u shartnama yoki bitim asosida tuziladi hamda muvaqqat xarakterga ega bo'ladi. Ular keyinchalik asosiy maqsadga erishganidan so'ng tarqalib ketishi yoki tuzilgan ittifoqni mustahkamlab federatsiyaga o'tishi yoxud qo'shilib unitar davlat bo'lib ketishi ham mumkin.

Konfederatsyaning federatsiyadan farqi shuki, federatsiya alohida davlatlarning yagona davlatga birlashish borasidagi ittifoqi bo'lsa, konfederatsiya mustaqil davlatlarning cheklangan sohalardagi ittifoqidir, ya'ni konfederatsiya sub'ektlari birlashish jarayonida o'z mustaqilligini saqlab qoladi, federatsiya sub'ektlari esa o'z suverenitetini federatsiya idoralari ixtiyoriga topshiradilar. Federatsiya konstitutsiya asosida birlashsa, konfederatsiya taraflarning o'zaro kelishuviga binoan shartnama yoki bitim asosida birlashadi.

Konfederatsyaning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- muayyan maqsadga erishish uchun birlashgan mustaqil davlatlarning ittifoqi;
- barqaror bo'limgan siyosiy tuzilma;
- yagona hududning mavjud emasligi;
- yagona fuqarolikning mavjud emasligi;
- konfederatsiya sub'ektlari undan erkin chiqib ketishi;
- konfederatsiya sub'ektlari qonunchilik hujjatlarini qo'llamaslik huquqiga egaligi;
- konfederatsiya vakolatiga cheklangan doiradagi masalalarni hal etish kirishi;
- konfederatsiya byudjeti uning a'zolari ixtiyoriy badallaridan tashkil topishi.

**Siyosiy rejim** – davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari va vositalari yig'indisidir. Siyosiy rejim tushunchasi o'mida «siyosiy tartib», «davlat rejimi», «davlat tartibi» tushunchalari ham qo'llaniladi.

Siyosiy rejimni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) demokratik siyosiy rejim;
- 2) nodemokratik siyosiy rejim.

Demokratiya – yunoncha – demokratia – xalq hokimiysi. *Demokratik siyosiy rejimda* davlat hokimiysi xalq manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltiriladi. Barcha insonlarning tengligi, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlanadi. Xalq davlatni idora etishda (davlat ahamiyatiga ega masalalarni hal etishda) o'zi saylagan deputatlari orqali (vakillik demokratiyasi) yoki saylov va referendumlar orqali bevosita (bevosita demokratiya) ishtirok etadi.

Demokratik siyosiy rejimning liberal va liberal-demokratik rejim turlari farqlanadi.

*Nodemokratik siyosiy rejimda* demokratiyaga xos prinsip va qoidalar tan olinmaydi, aksincha inkor etiladi.

Nodemokratik siyosiy rejimning totalitar (shaxsga sig'inish, ko'ppartiyaviylik tizimini rad etish, yagona rasmiy mafkura o'rnatilishi, hukmron partiya davlat boshqaruvini jilovlab turishi, uning qoidalari muqaddas aqidalardek qabul qilinishi, partiya va davlat organlarining o'zaro qo'shilib ketishi, boshqaruvni o'ta markazlashgan bo'lishi, shaxs siyosiy hayotda deyarli ishtirok etmasligi), fashistik (millatchilik mafkurasi) va avtokratik (aristokratik – hokimiyatga zadogonlar egalik qilishi, oddiy xalq davlat boshqaruviga jalb etilmasligi, insonning jamiyatdagi mavqeい uning ijtimoiy kelib chiqishi bilan belgilanishi; oligarxiya – hokimiyat aholining mulkdor tabaqasi tomonidan egallanishi, insonning jamiyatdagi mavqeい uning boyligi bilan belgilanishi, avtoritar – hokimiyat yagona shaxs (organ) qo'lida to'planishi, davlat hokimiyatini amalga oshirishda zo'ravonlik usullari qo'llanilishi, taraqqiyat parvar siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari faoliyati cheklanishi) turlari farqlanadi.

## Davlatning shakllari

- \* Davlat boshqaruv shakliga ko'ra: monarxiya; respublika.
- \* Davlat tuzilishi shakliga ko'ra: unitar davlat; federativ davlat; konfederativ davlat.
- \* Siyosiy rejimga ko'ra: demokratik siyosiy rejim; nodemokratik siyosiy rejim.

### 10-§. Davlat mexanizmi

Davlat mexanizmi tushunchasini yoritishdan oldin mexanizm tushunchasining lug'aviy ma'nosini aniqlashtirish talab etiladi. *Mexanizm* (yunoncha – mechane – qurol, mashina) – biror ishni bajaruvchi murakkab mashina; ichki tuzilish, sistema; biror narsaning o'zaro bog'liq bo'lган va yaxlitlikni tashkil etuvchi qismlari<sup>64</sup>.

Davlatga mamlakatning butun aholisini qamrab olgan uyushgan tashkilot sifatida yondashish mumkin. Ushbu tashkilotga uyushgan aholi «boshqariluvchilar» va «boshqaruvchilar»ga bo'linadi. Boshqaruvchilar davlat hokimiyatini amalga oshiradi.

Davlat mexanizmi (apparati) – davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi, yagona tizimga birlashgan organlar tizimi; davlat hokimiyatini amalga oshirish mexanizmi; davlatning harakatlanish mexanizmi; davlatning strukturasi (tarkibiy tuzilishi)dir.

Davlat mexanizmining faoliyat ko'rsatishi quyidagilarga asoslanadi:

- 1) davlat mexanizmining yagonaligi – davlat organlari o'zaro bog'liq bo'lган yaxlit tizimning elementlari hisoblanadi;
- 2) maqsad va vazifalarning umumiyligi – barcha davlat organlari umumiy maqsad va vazifalarni bajaradi, ya'ni xalq irodasini ifoda etadi va uning

<sup>64</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати — М. ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf) (мурожаат қилингандан вақт: 23.02.2020).

manfaatlari uchun xizmat qiladi;

3) ierarxik tizimga asoslanganligi – davlat mexanizmi piramida shaklida tuzilgan bo’lib, unda yuqori turuvchi organlar quyi turuvchi organlarga nisbatan ko’proq huquqiy vakolatlarga ega bo’ladi va ularning faoliyatiga ta’sir ko’rsata oladi, quyi turuvchi organlar esa yuqori turuvchi organlarning qarorlarini bajarishga majburdir;

4) majburlov apparatining mavjudligi – davlat organlari aholining normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishini ta’minlaydi; ushbu jarayonda qonunga itoat etmagan fuqarolarning o’rnatilgan tartibga rioya etishi majburlov apparati (davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura, ichki ishlar organlari va h.k.) orqali ta’minlanadi;

5) boshqaruv faoliyati bilan shug’ullanuvchi maxsus shaxslar guruhining mavjudligi – davlat organlarida faoliyat yurituvchi shaxslar, faqat boshqaruv ishlari bilan shug’ullanadilar, ular ishlab chiqarish va moddiy ne’matlar yaratish jarayonida ishtirok etmaydilar;

6) hokimiyat vakolatlariga ega bo’lgan davlat organlari ichki tuzilishining mavjudligi – davlat mexanizmining bir me’yorda ishlashini ta’minalash maqsadida davlat organlari, davlat muassasalari va davlat tashkilotlari birgalikda faoliyat yuritadi va o’z navbatida, ular ichki tarkibiy tuzilishiga ko’ra bir-biridan farq qiladi:

*organ* – hayotning muayyan bir sohasida belgili vazifalarni bajaruvchi muassasa, tashkilot<sup>65</sup>; *davlat organlari* – davlat funksiyalarini amalga oshirishda hokimiyat vakolatiga ega bo’lgan davlat mexanizmining asosiy bo’g’ini (prokuratura, sud, ichki ishlar organlari va h.k.);

---

<sup>65</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — О харфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

*tashkilot* – aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo’lgan ijtimoiy, xo’jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi<sup>66</sup>; *davlat tashkilotlari* – bevosita ishlab chiqarish va ta’midot bilan shug’ullanuvchi davlat idoralari; davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo’lgan funksiyalarni bajaradi; mazkur tashkilotlarning asosiy qismini davlat o’z monopoliyasida qoldiradi (metro, elektr energiyasi tarmog’ini boshqarish, aloqa tizimi va h.k.);

*muassasa* – xo’jalik, savdo-sotiq ishlari va shu kabilarning biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta’lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma’muriyatiga ega bo’lgan tashkilot<sup>67</sup>; *davlat muassasalari* – hokimiyat vakolatiga ega bo’lmasa-da, ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan muhim vazifalarni bajaruvchi idoralar (tibbiyot, ta’lim muassasalari, teatr va h.k.);

*idora* – ma’lum bir ijtimoiy, davlat, xo’jalik, savdo va shu kabi tarmoqlarni boshqarish uchun shtatli xodimlari va ma’muriyati bo’lgan tashkilot, muassasa, boshqarma va ular o’rnashgan bino<sup>68</sup>.

Davlat mexanizmining dastlabki va eng muhim tarkibiy elementi *davlat organidir*. Davlat organi – davlat funksiyalarini bajarishda qatnashuvchi va buning uchun tegishli hokimiyat vakolatlariga ega bo’lgan davlat mexanizmining bo’g’inidir.

Davlat organlari bevosita davlat funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan, o’zaro bog’liqliq va nisbiy mustaqil bo’lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sudlov organlari (tashkiliy tuzilmalar)ning hamkorlikda faoliyat yurituvchi yagona tizimidir.

---

<sup>66</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — Т ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20T.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>67</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — М ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20M.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

<sup>68</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати — И ҳарфи [Электрон манба] // URL: [http://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20I.pdf](http://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20I.pdf) (мурожаат қилинган вақт: 23.02.2020).

Davlat organlari tuzilishi jihatidan alohida va mustaqil tashkilot ekanligi, doimiy personallar – davlat xizmatchilarining mavjudligi, faoliyatining moddiy-moliyaviy jihatdan barqaror ta'minlanganligi bilan ajralib turadi.

Davlat organlarining belgilari quyidagilardan iborat:

1) operativ boshqaruva bo'lgan ommaviy mulkka ega va byudjet tomonidan moliyalashtiriladi;

2) davlat nomidan muayyan sohada uning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi;

3) hokimiyat vakolatlariga egaligi (ishontirish va majburlash usullaridan foydalangan holda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlashi);

4) tarkibiy tuzilishga egaligi, masalan vazirlik – departament – bosh boshqarma – boshqarma – bo'lim – bo'linma – guruh;

5) hududiy faoliyat miqyosiga egaligi, markaziy davlat organlari butun mamlakat hududida, mahalliy davlat organlari tegishli ma'muriy-hududiy birliklarda faoliyat ko'rsatadi;

6) qonun vositasida tashkil etiladi, ya'ni barcha davlat organlari qonun yo'li bilan tashkil etiladi va tegishli qonunlarda belgilab qo'yilgan tartib hamda vakolatlar asosida faoliyat yuritadi.

Davlat organlari quyidagi mezonlar bo'yicha tasniflanadi:

1) faoliyat shakli bo'yicha: vakillik, ijroiya, sud organlari va prokuratura organlari;

2) pog'onama-pog'ona bo'ysunish (ierarxiya) bo'yicha: markaziy va mahalliy davlat organlari;

3) vakolat muddati bo'yicha: doimiy (faoliyat muddati cheklanmagan) va vaqtinchalik (muayyan vazifani ma'lum vaqt davomida amalga oshiradi, masalan tabiiy ofat vaqtida hukumat komissiyasi) davlat organlari;

4) shakllanish manbai bo'yicha: birlamchi (xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylash yo'li bilan tashkil etiladigan) va ikkilamchi (xalq tomonidan saylangan organlar yoki shaxslar tomonidan shakllantiriladigan) davlat organlari;

5) vakolatni amalga oshirish tartibi bo'yicha: kollegial organlar (jamoaviy tarzda, masalan Oliy Majlis) va yakka tartibda (masalan, Prezident) vakolatni amalga oshiruvchi organlar.

Davlat mexanizmining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi muayyan rahbariy qoidalar asosida amalga oshiriladi. Davlat mexanizmining prinsiplari ularning to'g'ri faoliyat yuritishida yo'llanma beruvchi vazifani o'taydi. SHuningdek, mazkur prinsiplar davlat mexanizmining harakat doirasi va mezonini belgilab beradi.

Davlat mexanizmi faoliyati va uni tashkil etishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

*1) hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi prinsiipi.* Davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlanadi. Hokimiyat funktional darajada (vakolatlar doirasi bo'yicha), institutsiyaviy darajada (organlar bo'yicha) va shaxsiy darajada (shaxslar bo'yicha) taqsimlanadi.

Qonun chiqarish va ijro etish vakolatlari bir shaxs yoki idora ixtiyorida jamlansa, xalq manfaatlariga xizmat qilmaydigan qonunlarni qabul qilish va ulardan johillarcha foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Fransuz ma'rifatparvari Sh.L.Monteske «Qonunlar ruhi haqida» asarida izohlashicha:adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki aksincha bir-biriga tobe bo'limgan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo'lishi shart. Ularning har qanday ko'rinishda biron-bir organ yoki shaxs qo'lida mujassamlanishi umumiyl manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan aslo kelishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo'lda birlashtirilishi qonunning ustun bo'lismiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalar faqat sudlov bilan mashg'ul bo'lmay, qonun yaratish ishi bilan shug'ullansalar, u holda insonlar hayoti nohaqlik qurbaniga aylanishi mumkin<sup>69</sup>.

---

<sup>69</sup> Монтеске Ш.Л. Избранные произведения. — М., 1955. — С.290.

AQSh Massachusets shtati Konstitutsiyasidagi quyidagi qoidalar hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining mohiyati yanada batafsil yoritadi: «Jamiyatda insonlar emas, balki qonunlar hukmron bo’lishi uchun uni boshqarishda:

- qonun chiqaruvchi hokimiyat hech qanday sharoitda ijro etuvchi va sud hokimiyatini (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim;
- ijroiya organlar hech qanday sharoitda qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatini (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim;
- sud organlari hech qanday sharoitda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni (yoki ulardan birini) amalga oshirmasligi lozim»<sup>70</sup>.

Hokimiyat vakolatlarining oqilona taqsimlanishi: hokimiyatni suiiste’mol qilishning oldini oladi; hokimiyat vakolatlaridan chetga chiqishga yo’l qo’ymaydi; hokimiyat tarmoqlari o’zaro bir-birini muvozanatda ushlab turishi (tiyib turishi)ni ta’minlaydi; biron-bir hokimiyat organining mutlaq avtoritar mavqega ega bo’lishiga yo’l qo’ymaydi; hokimiyat tarmoqlari mustaqil, o’zaro teng va qonun asosida faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Pirovard natijada davlat organlari faoliyatining samarali bo’lishiga shart-sharoit yaratadi;

2) *inson va fuqarolar asosiy huquq va erkinliklarining ustuvorligi prinsipi.* Davlat mexanizmi inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e’tirof etgan holda o’z faoliyatini amalga oshiradi;

3) *demokratizm prinsipi.* Davlat mexanizmi xalqning ishtirokida shakllantiriladi, xalq hokimiyatini ifodalaydi va o’z faoliyatida xalq manfaatlariga xizmat qiladi;

4) *pog’onama-pog’ona bo’ysunish (ierarxiya) prinsipi.* Davlat organlari pog’onama-pog’ona joylashadi. Yuqori pog’onada turuvchi davlat organlari quyi turuvchi organlarga nisbatan ko’proq vakolatlarga va ularning faoliyatiga ta’sir o’tkazish imkoniyatiga ega bo’ladi;

---

<sup>70</sup> Давлат ва хукуқ назарияси: Дарслик / X.T.Одилқориев, И.Т.Тультеев ва бошк. — Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. — Б. 121.

5) *oshkorlik prinsipi*. Davlat mexanizmi o’z faoliyatini oshkorlik asosida amalga oshiradi. Oshkorlik davlat mexanizmi faoliyatining shaffofligini va faoliyat natijalaridan aholining xabardor bo’lishini ta’minlaydi;

6) *qonuniylik prinsipi*. Davlat mexanizmi o’z faoliyatini qonun asosida amalga oshirishi shart. Davlat organlari qonunda belgilab qo’yilgan vakolatlaridan chetga chiqishi mumkin emas;

7) *professionalizm prinsipi*. Davlat mexanizmi xizmatchilar maxsus malaka va bilimga, etarli tajriba va amaliy uquvgaga ega bo’lishi lozim;

8) *kollegiallik va yakkaboshchilikning birgaligi prinsipi*. Davlat mexanizmi o’z faoliyatini kollegiallik (jamoaviy boshqaruv) va yakkaboshchilik (rahbarning qarori) asosida amalga oshiradi;

9) *saylanish va tayinlanishning uyg’unligi*. Davlat mexanizmining tashkil etilishi saylanish va tayinlanish orqali amalga oshiriladi.

**Davlat mexanizmining  
asosiy xususiyatlari**

- \* davlat mexanizmining yagonaligi;
- \* maqsad va vazifalarning umumiyligi;
- \* ierarxik tizimga asoslanganligi;
- \* majburlov apparatining mavjudligi;
- \* boshqaruv faoliyati bilan shug’ullanuvchi maxsus shaxslar guruhining mavjudligi;
- \* hokimiyat vakolatlariga ega bo’lgan davlat organlari ichki tuzilishining mavjudligi.

## **Mantiqiy savollar**

1. «Fan», «nazariya», «davlat va huquq nazariyasi» tushunchalarining mohiyatini yoritib bering hamda ushbu tushunchalarning o'zaro aloqadorligini bayon eting.
2. Nazariya tushunchasi ko'p ma'noli so'zlar qatoriga kirishini inobatga olgan holda, ushbu tushunchaning mazmuniga doir ta'riflarni muhokama qiling va ularning umumiy o'xhash jihatlarini aniqlang.
3. «Fanning predmeti» hamda «davlat va huquq nazariyasining predmeti» tushunchalarining mohiyatini yoritib bering.
4. Davlatning jamiyat bilan aloqalari, jamiyat siyosiy tizimida davlat va huquqning roli va o'rni, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, aholining ijtimoiy, jamoaviy va individual siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga doir masalalarga alohida e'tibor qaratgan holda, davlat va huquq nazariyasi predmetining mohiyatini bayon eting.
5. Davlat nazariyasi va huquq nazariyasi bo'limlari doirasida o'rganiladigan masalalarga alohida yondashgan holda, davlat va huquq nazariyasi fanining tizimini tushuntiring.
6. «Metod», «davlat va huquq nazariyasi metodlari», «davlat va huquq nazariyasi metodologiyasi» tushunchalarining mohiyatini yoritib bering hamda ushbu tushunchalarning o'zaro aloqadorligini bayon eting.
7. Davlat va huquq nazariyasi metodlarining tasnifini tushuntiring.
8. Davlat va huquq hodisalarini o'rganishda qo'llaniladigan eng umumiylarining mohiyatini yoritib bering. Dialektik metodning metafizika metodidan farqli jihatlarini muhokama qiling.
9. Davlat va huquq hodisalarini o'rganishda qo'llaniladigan umumiylarining mohiyatini yoritib bering. Mantiqiy, tarixiy, abstraktsiya, deduktsiya, induktsiya, analiz, sintez, umumlashtirish metodlarining farqli jihatlarini tushuntiring.
10. Davlat va huquq hodisalarini o'rganishda qo'llaniladigan maxsus

metodlarning mohiyatini yoritib bering. Sistemali-strukturali, qiyosiy-huquqiy, statistik-matematik, kuzatish, so'rov o'tkazish, suhbat (intervyu), mutaxassis bahosi, jamoatchilik fikrini o'rganish, hujjatlarni o'rganish, kibernetik, modellashtirish, eksperiment metodlarining farqli jihatlarini izohlab bering.

11. Fanda universal metodning mavjud emasligini, har qaysi metod o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlariga egaligini, tadqiqot natijalarining samaradorligi metodlarning birgalikda qo'llanilishiga bog'liq ekanligini amaliyat misollari vositasida muhokama qiling.

12. Davlat va huquq masalalarini o'rganuvchi ijtimoiy fanlar, shu jumladan sohaviy yuridik fanlardan davlat va huquq nazariyasining farqli jihatlarini muhokama qiling. Davlat va huquq nazariyasi davlat va huquq hodisalarining qaysi jihatlarini o'rganishini tushuntiring.

13. Davlat va huquq nazariyasi fanining umumbashariy xususiyatga egaligini, fundamental-huquqiy fan ekanligini, yuridik fanlar tizimida yetakchi mavqe va nufuzga egaligini muhokama qiling.

14. «Yuridik», «yurisprudentsiya», «yurist» tushunchalarining mohiyatini yoritib bering. Ushbu tushunchalarining davlat va huquq nazariyasi bilan aloqadorligini tushuntiring.

15. Davlat va huquq nazariyasi ijtimoiy, yuridik, siyosiy, fundamental (nazariy-metodologik) fan sifatida namoyon bo'lishining xususiyatlarini yoritib bering.

16. Bugungi kunda «huquq falsafasi», «huquq sotsiologiyasi», «siyosat sotsiologiyasi», «davlat sotsiologiyasi» nomli yangi fan va ilm sohalari shakllanayotganligini e'tiborga olgan holda, davlat va huquq hodisalariga falsafiy va sotsiologik yondashish zarurati oshib borayotganligini tushuntiring. Yurisprudentsiyaning falsafa va sotsiologiya bilan aloqadorligini muhokama qiling.

17. Davlat va huquq masalalariga doir ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning zamon talablariga hamohang tarzda yaratilishi zaruratini izohlagan holda, davlat va huquq nazariyasining vazifalarini tushuntiring.

18. Davlat va huquq nazariyasi vazifalari va funksiyalarining o'zaro aloqadorligini tushuntiring. Ushbu fanning yig'ish, ta'riflash, prognoz qilish funksiyalarining mohiyatini yoriting.

19. Jamiyat davlat va huquqdan oldin vujudga kelganligiga, unda biologik qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar amal qilishiga e'tibor qaratgan holda, jamiyat tushunchasining mohiyatini bayon eting.

20. Insoniyat taraqqiyoti muayyan bosqichlaridagi jamiyatlarga xos bo'lган xususiyatlarni yoriting.

21. Ibtidoiy jamiyat (urug'chilik jamiyati) ning asosiy xususiyatlarini, ibtidoiy jamiyat (davlatgacha bo'lган davr) taraqqiyotidagi ikki asosiy bosqich, ya'ni o'zlashtiruvchi iqtisodiyot (ovchilik, baliqchilik, terib-termachlash) va ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot (dehqonchilik, chorvachilik, metallni qaytash ishlash, sopol buyumlar ishlab chiqarish) davrining xususiyatlarini yoriting.

22. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi dastlabki ijtimoiy normalarning shakllanishi va rivojlanishini tushuntiring.

23. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi diniy nazariyaning mohiyatini yoriting.

24. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi tabiiy huquq nazariyasining mohiyatini bayon eting.

25. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi patriarchal nazariyaning mohiyatini tushuntiring.

26. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi shartnoma nazariyasining mohiyatini muhokama qiling.

27. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi zo'ravonlik nazariyasining mohiyatini yoriting.

28. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi tarixiy materialistik nazariyaning mohiyatini bayon eting.
29. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi organik nazariyaning mohiyatini tushuntiring.
30. Davlat va huquqning vujudga kelishi to'g'risidagi psixologik nazariyaning mohiyatini muhokama eting.
31. Davlatning mohiyati haqidagi nazariyalarni muhokama eting.
32. Davlat tipologiyasi tushunchasi va mohiyatini ochib bering.
33. Davlatning funksiyalari tushunchasi, mazmuni va belgilarini yoriting.
34. Davlat funksiyalarini tasniflang.
35. Davlatning ichki funksiyalarini tushuntiring.
36. Davlatning tashqi funksiyalarini tushuntiring.
37. O'zbekiston davlatining ta'lim funksiyasini yoriting.
38. Davlat shakli tushunchasini ta'riflang.
39. Davlat boshqaruvi shaklini mohiyatini tushuntiring.
40. Davlatning tuzilish shaklini mohiyatini tushuntiring.
41. Siyosiy rejim tushunchasi va mohiyatini yoriting.
42. Davlat mexanizmi (apparati) tushunchasi va mohiyatini bayon eting.
43. Davlat organi tushunchasi va turlarini izohlang.
44. Hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipining mohiyatini ochib bering.
45. Huquqning tushunchasi va mohiyatini izohlang.
46. Huquqning ta'rifi va uning talqiniga doir yondashuvlarni muhokama eting.
47. Huquq prinsiplari tushunchasi va mohiyatini yoriting.
48. Huquq prinsiplarini tasniflang.
49. Huquq funksiyalari tushunchasi va turlarini izohlang.
50. Ijtimoiy ong tizimida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni va rolini ochib bering.
51. Huquqiy ong tushunchasi va tuzilishini yoriting.

52. Huquqiy tarbiya va uni amalga oshirish usullarini muhokama eting.
53. Huquqiy madaniyat va uning tarkibiy qismlarini muhokama eting.
54. Huquqiy nigilizm va huquqiy idealizmning mohiyatini tushuntiring.
55. Huquq normasi tushunchasining mohiyatini yoriting.
56. Huquq normasining tuzilishini izohlang.
57. Huquq normalarining turlarini muhokama eting.
58. Huquq shakli (manbai) tushunchasining mohiyatini yoriting.
59. Huquqning manbai sifatida yuridik pretsedentning o'rni va rolini ochib bering.
60. Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi va mohiyatini tushuntiring.
61. Musulmon huquqining manbalarini muhokama eting.
62. Huquq ijodkorligi tushunchasi, turlari va funksiyalarini izohlang.
63. Huquq ijodkorligi prinsiplarini tushuntiring.
64. Qonun ijodkorligi jarayoni va bosqichlarini izohlang.
65. Normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, hudud va shaxslarga nisbatan amal qilishining mohiyatini ochib bering.
66. Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini izohlang.
67. Huquqiy tartibga solish predmeti va uslubi – huquqni tarmoq va institutlarga ajratish mezoni ekanligini batafsil tushuntiring.
68. O'zbekiston Respublikasidagi asosiy huquq tarmoqlarining qisqacha tafsifini yoriting.
69. Qonunchilik tizimi tushunchasi va mohiyatini bayon eting.
70. Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish tushunchasi va turlarini muhokama eting.
71. Normativ-huquqiy hujjatning tili va uslubini izohlang.
72. Qonunlarni tizimlashtirishda yuridik texnikaning ahamiyatini yoriting.
73. Huquqiy tizim tushunchasi va mohiyatini tushuntiring.
74. Huquqiy tizimning tarkibiy elementlarini izohlang.

75. Huquqiy munosabatlarning tushunchasi, tuzilishi va turlarini muhokama eting.
76. Huquqiy munosabatlarning sub'ektlari tushunchasi va mohiyatini yoriting.
77. Huquqiy munosabatlarning ob'ekti tushunchasi va mohiyatini ochib bering.
78. Sub'ektiv huquq va yuridik majburiyatlarning mohiyatini izohlang.
79. Yuridik faktlar tushunchasi va mohiyatini izohlang.
80. Huquqni amalga oshirish tushunchasi va bosqichlarini yoriting.
81. Huquqni amalga oshirish usullari va shakllarini muhokama eting.
82. Huquqni qo'llash – huquqni amalga oshirish shakli ekanligini bat afsil yoriting.
83. Huquqni qo'llash jarayoni va sub'ektlarini izohlang.
84. Huquqni qo'llash hujjatlari tushunchasi va mohiyatini tushuntiring.
85. Qonun analogiyasi va huquq analogiyasi tushunchalarining mohiyatini va o'zaro aloqadorligini tushuntiring.
86. Huquq normalarini sharhlash tushunchasi va mohiyatini izohlang.
87. Huquq normalarini sharhlash usullarini muhokama eting.
88. Huquqiy hulq-atvor tushunchasi, belgilari va tasnifini yoriting.
89. Huquqbazarlik tushunchasi va mohiyatini ochib bering.
90. Yuridik javobgarlik tushunchasi, belgilari va turlarini izohlang.
91. Aybsizlik prezumptsiyasi, yuridik javobgarlik va qilmishning huquqqa xilofligini istisno qiluvchi holatlar tushunchalarining mohiyatini yoriting hamda o'zaro aloqadorligini ochib bering.
92. Huquqiy tartibga solish tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
93. Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solishni muhokama eting.
94. Huquqiy tartibga solishning ijtimoiy va ruhiy mexanizmini muhokama eting.
95. Qonuniylik tushunchasi, mohiyati va vazifalarini tushuntiring.
96. Qonuniylikni ta'minlashda Konstitutsiyaning ahamiyatini tushuntiring.

97. Huquqiy tartibot, jamoat tartiboti, intizom tushunchalarining mohiyatini yoriting va o'zaro aloqadorligini ochib bering.

98. Hozirgi zamon davlati va huquqi taraqqiyotining kontseptual xususiyatlarini yoriting.

99. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy tuzilishi va asosiy prinsiplarini muhokama eting.

100. Huquqiy davlat ta'lilotining tarixiy-nazariy manbalarini tushuntiring. Huquqiy davlat va uning belgilarini yoriting.

### Kazuslar

